

M.H.Abdurahmonova

ЎЗБЕК ТИЛИ
ЛЕКСИКОЛОГИЯСИ

Манаф
Ори

Toshkent - 2009

Ushbu qo'llanma fan so'z yasashiga oid tushunchalarni to'la va to'g'ri belgilash, ulardan har birining mohiyatini to'g'ri aniqlash so'z yasashi tizimi bilan bog'liq barcha hodisalarning mohiyatini to'laligicha tushunishi uchun yaratilgan. Shuning uchun ham ularni ma'lum tartibda, shu maqsadga imkon beradigan tartib asosida tanishtirib boriladi.

Talabalarda urdu tilida so'z yasashiga oid hodisalarni aniq belgilab olishga, ularning mohiyatini to'g'ri yoritish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishga asosiy urg'u berilgan.

Mas'ul muharrir:

Tuzuvchi:

*Abdurahmonova M.H. «Janubiy Osiyo tillari» kafedrasida
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

Taqrizchilar:

Obidov B. Beruniy nomli sharqshunoslik ilmiy tadqiqot instituti
katta ilmiy xodimi, tarix fanlar nomzodi;

*Nurmatov S.S. «Janubiy Osiyo tillari» kafedrasida
katta o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi*

Toshkent davlat sharqshunoslik institutining O'quv – uslubiy kengashi
tomonidan nashrga tavsiya etilgan. (Bayonnoma№1. 13.11.2009)

© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2009

KIRISH

So'z yasashi tilshunoslikning (leksikologiya, grammatika kabi) mustaqil sohalaridan biri bo'lib, u yangi so'z yasashi, so'z yasash usullari va, umuman, so'z yasashi bilan bog'liq bo'lgan hodisalarni o'rganadi.

So'z yasashi termini ikki xil hodisaga nisbatan qo'llanadi: 1) umuman, so'z yasashi, so'z hosil qilinishi hodisasini; 2) tilshunoslikning so'z yasashi bilan bog'liq hodisalarni o'rganuvchi bo'limini bildiradi.

So'z yasash, qanday usul bilan bo'lsada, yangi so'z hosil qilish demakdir: *ish + chi – ishchi, hozir + javob – hozirjavob, besh yil + lik – besh yillik* kabi.

Til taraqqiyoti protsessida uning leksikasi, grammatik qurilishi va boshqa sohalarida bo'lgani kabi, so'z yasashi sohasida ham turli o'zgarishlar yuz beradi. Masalan, so'z yasashi tiplarining aktiv yoki passivligi turli davrlarda turlicha bo'lishi yoki tarixan yasama bo'lgan so'z hozirgi yasash nuqtai nazaridan yasama hisoblanmasligi mumkin.

Hozirgi (sinxron) so'z yasashida yasama so'z komponentlari o'rtasidagi munosabat jonli bo'ladi, uning ma'nosini komponentlarining ma'no munosabati bilan asoslash mumkin (shunday munosabat aniq sezilib turadi): *ter + im, yig' + im, o'r + im; arra + la, randa + la, egov + la; insof + siz, savod + siz, ko'rim + siz* kabi.

Tarixiy (diaxron) yasashda yasama so'zning ma'noning ifodalanish usulini yuqoridagidek asoslab bo'lmaydi. Bu ma'no maxsus tekshirishlar, tarixiy kuzatishlar orqali aniqlanadi. Masalan, *ko'rpacha*: *ko'rupa* so'zi yotganda ustga yopiladigan, ichiga paxta yoki boshqa narsa solib tayyorlangan narsani, **-cha** affiksi esa kichraytish ma'nosini bildiradi. Lekin *ko'rpacha* so'zi «kichik ko'rupa» degan ma'noni emas, balki ichiga paxta yoki boshqa narsa solib tayyorlangan, o'tirish joyiga to'shaladigan narsani bildiradi. Demak, *ko'rpacha* so'zining ma'nosini uning *ko'rupa* va **-cha** qismlari ma'nosi bilan asoslab bo'lmaydi. Shuning uchun ham *ko'rpacha* so'zining yasashi tarixiy yasash hisoblanadi. Bunda hozirgi *ko'rpacha* so'zini *ko'rupa* va **-cha** komponentlariga ajratib emas, balki uning qanday qilib shunday ma'noni ifodalovchi so'zga aylanganligini aniqlash,

tekshirish kerak. Demak, tarixiy (diaxron) soʻz yasalishi bir birlikning (bu oʻrinda morfologik birlikning – kichraytish formasining) qanday qilib ikkinchi bir birlikka (leksik birlikka - leksemaga) oʻtishini oʻrganadi.

Hozirgi (sinxron) soʻz yasalishi kamida ikkita yasovchi komponent qatnashadi. Bulardan hech boʻlmaganda bittasi mustaqil maʼnoli (predmet, belgi, harakat va sh.k.) boʻladi. Yasama soʻzni yuzaga keltiruvchi bu komponentlar yasovchilar, ularning oʻzaro munosabatidan (birikishidan) hosil boʻlgan birlik yasalma (yasama soʻz) deyiladi.

Yasalmaning yuzaga kelishida qatnashuvchi mustaqil maʼnoli qism yasovchi asos (yasalmaning asosi) hisoblanadi. Bunday asos soda yasama soʻzda bitta, qoʻshma soʻzda birdan ortiq boʻladi: *ishchi*: *ish* – yasovchi asos, - *chi* – yasovchi affiks, *ishchi* – yasalma.

Semantik usul bilan soʻz yasalishida tilda bor boʻlgan soʻz (soʻz formasi) ning maʼnosi oʻzgarishi natijasida yangi soʻz hosil boʻladi: *kun* (sutkaning yorugʻ qismi) – *kun* (quyosh, planeta), *boshda* (oʻrni kelishigidagi otdan yuzaga kelgan ravish), *kechasi* (egalik formasidagi otdan yuzaga kelgan ravish) va b.

Oʻzbek tilida fonetik oʻzgarish (tovush oʻzgarishi) natijasida hosil boʻlgan soʻzlar ham anchagina: *koʻr* – *koʻz*, *boʻr* *boʻz* kabi. Bunday yoʻl bilan soʻz hosil boʻlishi fonetik usul bilan soʻz yasalishi deyiladi.

Sintaktik – leksik usul bilan soʻz yasalishi deganda soʻz birikmasining soʻzga aylanishi tushuniladi. Vaqtlar oʻtishi bilan maʼlum tipdagi soʻz birikmalari bir soʻzga aylanishi mumkin. Bunda soʻz birikmasi bir maʼno – leksik maʼno ifodalaydigan boʻlib qoladi, birikma komponentlari oʻrtasidagi sintaktik aloqa yoʻqoladi. Natijada aslida soʻz birikmasi boʻlgan birlik qoshma soʻzga aylanadi. Masalan, *tokqaychi*, *qashqargul*, *mingboshi*, *joxoripoya*, *yengiltabiat* kabi soʻzlar xuddi shunday yoʻl bilan hosil boʻladi.

1 - mavzu:

SUFFIKSATSIYA USULI SUFFIKSLAR YORDAMIDA MAVHUM OTLARNING YASALISHI (I)

Darsning oʻquv maqsadi: talabalarda mavhum otlarning forsiy va hindiy suffikslari vositasida yasalishi haqida koʻnikma hosil qilish

Reja:

1. Feʼl oʻzagiga qoʻshilib keladigan suffikslar
2. Harakat jarayonini anglatuvchi otlarning yasalishi
3. Holat, harakat bilan bogʻliq jarayon, belgi-xususiyatni bildiruvchi otlarning yasalishi
4. Mavhum ot yasashda kamunum suffikslarning qoʻllanilishi

Tayanch tushuncha va iboralar: suffiks, mavhum ot, feʼl oʻzagi, yasash asosi, mahsuldor suffiks, kamunum suffiks

MAVZU BAYONI:

I. Quyidagi suffikslar feʼl oʻzagiga qoʻshilib, mavhum ot yasaydi:

1. -an feʼl oʻzagiga qoʻshilib, harakat va holat atamasini bildiruvchi mavhum ot yasaydi: $V_{\pi} + an$
uljhan – sarosima, qiyin ahvol
bandhan – aloqa, rishta
dhaRkan – yurak urishi

“Meⁱⁿ kita:b lekar leTa: magar paRhne meⁿ ji: na laga:. Ba:r ba:r bu:Rhe ka: a:ⁿsuoⁿ se tar chehra niga:hoⁿ meⁿ ghu:m ja:ta:. Ka:sh meⁱⁿ ne use rupiya: do rupiya: de diya: hota:. Yeh uljhan to na thi:.”

“Men kitobni olib yotdim, ammo oʻqish koʻnglimga sigʻmadi. Qayta-qayta cholning koʻz yoshidan nam boʻlgan yuzi koʻz oldimda gavdalanardi. Qaniydi, unga 1-2 rupiya sadaqa qilganimda. Axir, buning ogʻirligi yoʻq edi-ku (menga)”.

“Voh ra:sta bhar dua:yeⁿ ma:ⁿgta: a:ya: tha: a^or jab use pata chala: ki a:j chuTTi: thi: a^or voh us ke sa:th a:uting ke liye ja:na: cha:hti: heⁱ to us ki: sa:ri Thakan du:r ho gayi: thi:.”

“U yoʻl boʻyi xudodan soʻrab keldi. U dam olish kuni [qiz] u bilan shahardan tashqariga chiqish istagida ekanini bilganida bor charchogʻi chiqib ketdi.”

2. -a:yi: hindcha suffiksi yasash asosidan anglashilgan yasaydi: $V_{\pi}+ a:i$:

si:ncha:yi: – sug‘orish

munDa:yi: – qirish, kesish

utra:yi: – tushish (pastga)

“Khuda:yi: karne se pata chala: ki a:m ka peR bhi: ka:Tna: paRega: varna us ki: jareⁿ bunya:doⁿ ko nuqsa:n pahuⁿcha: sakti heⁱⁿ. Ve’she bhi: a:ndhi: a^or tufa:n ki: vajah se uske Tu:Tne se nayi: ima:rat ko nuqsa:n pahuⁿchne ka: andesha tha:”.

“Erni kavlash ishlaridan ma’lum bo‘ldiki, mango daraxtini ham kesib tashlashga to‘g‘ri keladi. Aks holda uning ildizlari (imoratning) poydevoriga ziyon keltirishi mumkin. Shusiz ham kuchli shamolning dastidan uning sinib, imoratga zarar yetkazish ehtimoli bor edi.”

“Sar Sayyad ne apni: kama:yi: se ne kabhi ma:l jama: karne ka: ira:da kiya: a^or na a^ola:d ke liye koi: ja:ida:d khari:di: balki jo kuch kama:ya: apni: sachchi izzat a^or nekna:mi: ke liye sarf kiya:.”

“Sar Sayyad ishlab topganiga na mol-dunyoni o‘yladi va na farzandi uchun yer-suv sotib oldi, balki nimaiki topgan bo‘lsa, haqiqiy hurmat va yaxshi nom qoldirish uchun sarfladi.”

3. –a:o hindcha suffiksi yasash asosi anglatgan holat, harakat bilan bog‘liq jarayon, belgi-xususiyatni bildiruvchi ot yasaydi: $V_{\pi}+ a:o$

bika:o – sotish

patthra:o – toshbo‘ron

phela:o – yoyilish, tarqalish

“Alta:f Huseyn Ha:li: ka: is a:rifa:na maqu:le par pu:ra: pu:ra: amal tha: ki “burha:pe meⁿ apni himmat do chand kar, kiyoⁿki tera: vaqt qariyb a: pahuⁿcha: heⁱ a^or anqari:b meⁿ teri: bula:o honeva:li: heⁱⁿ”.

“Altaf Husayn Holiy manavi dono naqlga to‘la amal qilardi: “qarigan chog‘ingda ikki baravar ko‘p harakat qil, zero qaytish vaqting yetib keldi va seni u (xudo)ning huzuriga chorlashlariga yaqin qoldi”.

“Insa:n ko dushman ke sa:th eⁱsa: barta:o rakhna: cha:hiye ki us ko dost bana: lene ka: ma^oqa rahe a^or dost se is tarah barta:o cha:hiye agar kabhi: voh dushman ho ja:ye to us ke zarar se bachne ki: jagah ba:qi: rahe.”

“Inson dushmaniga shunday munosabatda bo‘lishi kerakki, uni o‘ziga do‘st bo‘lib qolishiga imkon tug‘ilsin. Do‘stga esa shunday muomala ko‘rsatish kerakki, payti kelib, u dushmaniga aylansa, uning yomonligidan qutilishning bir chorasi muqim tursin.”

4. –va: suffiksi –a:o suffiksining varianti hisoblanadi: $V_{\pi}+ va:$

behla:va: – kayf-safo, ko‘ngil ochish

behka:va: – pand berish, aldash

pachta:va: – nadomat, pushaymon

“ThoRi: der ba:d Satbhara:i: ja:ne lagi:. Kuch ma:ⁿgne a^or bakhshva:ne ke liye alfa:z zaru:ri: the a^or uske pa:s pachta:ve ke a:ⁿsuoⁿ ke siva: kuch nahi:ⁿ tha:”

“Saldan keyin Satbharay keta boshladi. Biron narsani iltimos qilish yoki (uni) kechirishlari uchun so‘z kerak edi. Ammo uning afsus-nadomat ko‘z yoshlaridan boshqa hech narsasi yo‘q edi”.

5. –haT suffiksi a) fe‘l negiziga qo‘shilib, harakat va holat jarayoni nomini bildiruvchi ot yasaydi: $V_{\pi}+ haT$

a:haT – oyoq tovushi, sharpa

bokhla:haT – hovliqish, sarosima, jahl

ghabra:haT – qo‘rquv, tashvish

“Chand ra:hgi:roⁿ ne uske liye ra:sta chhoRa: phir mochiyoⁿ ki: duka:n ke sa:mne ukRuⁿ beithe ka:n kaTe kutte ne uspar ghurra:ne ke liye muⁿh khola: tha:, magar phir uske shuna:sa: hamra:hiyoⁿ ko dekhkar voh apni ghurra:haT pi: gaya:”.

“Bir necha yo‘lovchi unga yo‘l bo‘shatdi. Keyin ko‘nchilarning do‘koni to‘g‘risida cho‘qqayib o‘tirgan quloqlari kesilgan it unga qarab irillay deb turganda (ayolning) yonidagi hamrohlarini tanib qolib, irillamay qo‘ya qoldi.

“Begum Hami:d ki: muskura:haT a^or us ki: beTiyoⁿ ka: sala:m vusu:l karke voh apne kamre meⁿ pahuⁿchta: heⁱ to mez par kha:na: chuna: hua: hota: heⁱ.”

“Hamid begimning tabassumi va uning qizlarining salomini qabul qilgach, xonasiga kirganda stolga ovqat tortilgan bo‘lardi.”

v) –haT suffiksi sifatga qo‘shilib, uning ma‘nosi bilan bog‘liq belgi, xususiyatni anglatuvchi mavhum ot yasaydi: Adj+haT

pi:la:haT – sariqlik, sarg‘ish rang

dhuⁿdhla:haT – xiralik

“Is ghuba:r meⁿ bahot si: chi:zeⁿ chup gayi: thi:ⁿ. Ka:fi: dhundhula:hatT thi:. Magar bahot se chenre ab tak sa:f nazar a: rahe the. Mujhe bhuli: bisri: a:va:zeⁿ suna:yi: dene lagi:[”]”.

“Shu chang-to‘zonda anchagina narsalar ko‘rinmay qolgan edi. Atrof g‘ira-shira edi. Biroq ko‘pgina (odamlarning) chehralari aniq ko‘rinib turardi. Yodimdan ko‘tarilgan ovozlar eshitila boshladi”.

6. -a:vaT suffiksi ham -haT kabi harakat-holatni anglatuvchi mavhum ot yasaydi: V_π+a:vaT

ruka:vaT – g‘ov, to‘siq, to‘sqinlik

bana:vaT – 1) tarkib 2) shakl, tuzilish

thaka:vaT – charchoq, horg‘inlik

“Kuch der ki: soch bicha:r ke ba:d voh use cha:roⁿ konoⁿ se pakaRkar ek jhulaⁿge meⁿ Da:l lete heⁱⁿ, apne sa:th uTha:e hue phirne lagte heⁱⁿ. Thaka:vaT gha:lib a: ja:ti: heⁱⁿ”.

“Biroz o‘ylab ko‘rgandan keyin ular (to‘tilar) uni to‘rt tomondan ushlab oldilar va uni ko‘targancha arg‘imchoq solib uchib ketadi. Charchoq-horg‘inlik ustun kela boshlaydi”.

“Ham ne chand ek risa:le, sha:iri: a^or afsa:noⁿ ke majmue, angrezi: ke chand na:val, jinheⁿ kharid kar meh^z saja:vat a^or bharam qa:im rakhne ke liye bukshelf meⁿ rakha: hua: tha:[”]”.

“Biz bir necha jurnal, she‘riy va nasriy to‘plamlar, ingliz tilidagi bir necha romanlarni sotib olib, faqat yasatib qo‘yib, ko‘z-ko‘z qilish uchun kitob tokchalariga taxlab qo‘ygan edik.”

7. –ni: suffiksi mavhum ot yasashda kamunum suffikslardan hisoblanadi: V_π+ ni:

luRhakni: – dumalash, chayqalish

milni: – uchrashish, qabul

8. a) –ish forscha suffiksi fe‘lning hozirgi zamon negiziga qo‘shilib, holat oti yasaydi: V_π+ ish

sa:zish – fitna, til birlashtirish

parastish – sig‘inish, sajda qilish

pe‘ma:ish – o‘lchash, o‘lchov

“Phir voh use roz ga:rDen meⁿ phu:loⁿ ki numa:ish meⁿ le gaye jaha:ⁿ mulk bharse tarah tarah ke pa^ode, phu:l, jha:riya:ⁿ la:kar rakhi: gayi: thi:ⁿ. Unhoⁿne use Ma:rgala a^or Mari: ke jangala:t ki: bhi: seir kara:yi:[”]”.

“Keyin uni har kuni gullar ko‘rgazmasi bo‘layotgan boqqa olib bordi, u yerda mamlakatning turli burchaklaridan turfa xil ko‘chat,

gullar, butalar olib kelingan edi. U hatto (qizni) Margala va Mariy o‘rmonlarini aylantirib kelgan edi”.

v) –ish suffiksi otlarga ham qo‘shiladi: N+ish

shorish – fitna, g‘alayon

ranjish – xafalik, alam

pechish – ich ketish, difteriya

“Gunja:ish to nahi:ⁿ thi:, lekin a:j kal shehr ke is feshnebl ila:qe meⁿ ra:t ko ka:roⁿ meⁿ beiThkar kha:na:-pi:na: kha:te-pi:te logoⁿ ka: dastu:r heⁱ. Khud ko is tabqe meⁿ sha:mil samajhne ke liye hameⁿ bhi: yeh dastu:r nibha:na: paRa:[”]”.

“Bo‘sh joy-ku yo‘q edi, ammo hozir shaharning bu hashamatli rayonida kechalari mashinada o‘tirib yeb-ichish o‘ziga to‘q odamlarning odatiga aylangan edi. O‘zimizni shularning toifasiga mansub deb hisoblash uchun biz ham shunga rioya qilishimizga to‘g‘ri keldi”.

9. –iyat suffiksi:

a) otlarga qo‘shilib, mavhum ot yasaydi: N+iyat

bashariyat – insoniyat

buqra:tiyat – donolik, jiddiylik

jumhu:riyat – 1) demokratiya 2) xalq hokimiyati, respublika

“Agle roz ek a^or sha:hi: farma:n ja:ri: hua: ki saltanat ki: hudu:d meⁿ chehcheha:na: mamnu: qara:r diya: gaya:. A^or e‘sa: har parinda ma:rne par ina:m diya: ja:yega jiski: a:va:z a^or chehcheha:haT par mu:si:qi: ya: ghina:iyat ka: shubha ho sakta: heⁱⁿ”.

“Ertasi kuni shohning yana bir farmoni chiqdi. Unga ko‘ra saltanat hududida (qushlarning) sayrashi man etildi. Qushning chug‘ur-chug‘urida zarracha ohang, musiqiylik bo‘lsa, uni o‘ldirganga in‘om tayinlanadigan bo‘ldi”.

v) –iyat suffiksi sifatga qo‘shilib, mavhum ot yasaydi:

ma:su:miyat – soddalik

ma:qu:liyat – odamiylik

apna:iyat – yaqinlik

“Meⁱⁿ Sar Sayyad ko ek cho^utha:i sadi: se ja:nta: hu:ⁿ. Mera: a^or unka: ta:lluq bamanzila ek rishteda:r ke heⁱ, na ki bata^or ek dostke, jitni: ziya:da unki meri: va:qifiyat baRhti: gayi: us qadar unki: qadr-o-manzalot mere dil meⁿ ziya:da hoti: gayi:[”]”.

“Men Sar Sayyadni chorak asrdan beri bilaman. Do‘st emas, misoli qarindoshdek edik biz. Bir-birimizni yaqinroq bilganimiz sayin dilimda unga nisbatan hurmat ortib borardi”.

-iyat suffiksi ingliz o‘zlashmalariga ham qo‘shilib, gibrid so‘z hosil qiladi:

“Us ka: ji: cha:h¹ta: he¹ ki us ke sa:mne gapshap hoti: rahe a⁰r voh ma:ⁿ beTiya:ⁿ usse e¹si: ba:teⁿ kareⁿ jisse daftar ke paRhne-likhne ki: boruyat a⁰r Thakan du:r ho ja:ye”.

“Istardiki, uning oldida gaplashib o‘tiraverishsa, ona-bola unga shunday narsalardan gapirishsaki, ishxonadagi yozuv-chizuvlardan zerikkani va charchog‘i tarqab ketsa”.

Savol va topshiriqlar:

1. Urducha – o‘zbekcha lug‘atdan mavhum otlarni topib ko‘chiring
2. Mavhum otlar ishtirokida 5 ta gap tuzish

2 - mavzu:

SUFFIKSLAR YORDAMIDA MAVHUM OTLARNING YASALISHI (II)

Darsning o‘quv maqsadi: talabalarda mavhum otlarning forsiy va hindiy suffikslari vositasida yasalishi haqida ko‘nikma hosil qilish

Reja:

1. Fe‘l o‘zagiga qo‘shilib keladigan suffikslar
2. Harakat jarayonini anglatuvchi otlarning yasalishi
3. Holat, harakat bilan bog‘liq jarayon, belgi-xususiyatni bildiruvchi otlarning yasalishi
4. Mavhum ot yasashda kamunum suffikslarning qo‘llanilishi

Tayanch tushuncha va iboralar: suffiks, mavhum ot, fe‘l o‘zagi, yasash asosi, mahsuldor suffiks, kamunum suffiks

MAVZU BAYONI:

1. Quyidagi suffikslar sifatlarga qo‘shilib, yasash asosi ma‘nosi bilan bog‘liq ravishda holat, xususiyat ma‘nolarini anglatuvchi mavhum ot yasaydi:

a. -i: suffiksi turlicha ma‘no anglatadigan mavhum otlar yasaydi:

a) sifatlarga qo‘shilib, yasash asosi ma‘nosi bilan bog‘liq holat, xususiyat, belgi ma‘nolari anglatgan ot yasaydi:

gehra:i: - 1) chuqurlik; 2) teranlik

garmi: - issiq, issiqlik, harorat

bura:i: - yomonlik

“Filhaqi:qat achchi: ma:ⁿ a⁰la:d ke haq meⁿ khuda: ki: rehmat he¹ jo us meⁿ umda ikhla:q ki: buniya:d Da:l¹ti he¹ a⁰r bura:iyoⁿ ka: rukh neki: ki: taraf p¹her deti: he¹.”

“Darhaqiqat yaxshi ona – farzand uchun xudoning rahmati. U [farzandning] axloqini shakllantiradi, yomon xislatlarni ezgulik tomon buradi.”

“Us ne laRakpan meⁿ ye sabaq si:kha: tha: ki bura:yi: karnevaloⁿ ke sa:th bura:yi: karna: khud:a:p ko ve¹sa hi: bana:na: he¹.”

“Unga bolaligidayoq singdirilgan edi: yomonlik qilganlarga yomonlik bilan javob berish o‘zini o‘shalar qatoriga qo‘shishdir.”

Agar ot “hay-havvaz”ga tugagan bo‘lsa, -i: suffiksi -gi: shaklini oladi:

“Kuch hi: arsa meⁿ us ke chehre se bivagi: a⁰r baRhti: umr ki: kohnagi: ke chilke utarne lage.”

“Bir pasning o‘zidayoq uning chehrasidan bevalik va o‘tib borayotgan umr qoldirgan qarilik izlari yo‘qola bordi.”

“Voh ja:nte hi: nahiⁿ ki is qism ki: a:m sohbateⁿ zindagi: ki: dilchaspi: ke liye kis qadar zaru:ri: heⁱⁿ a⁰r tabiat ki: shuguftagi: par kya asar paRta: he¹.”

“Ular bunday oddiy suhbatlar hayotdan zavqlanish uchun naqadar kerakli ekanini, hatto [inson] tabiatidagi go‘zallikka nechog‘li ta‘sir qilishini anglab yetmaydilar.”

b) otga qo‘shilib, ot yasaydi:

na⁰kari: - ish, xizmat

jarra:hi: - xirurgiya, jarrohlik

badba:ni: - yelkanli sport

“Kisi: vajah se voh klark na⁰kari: se ala:hida ho gaya: to ek ma⁰qa par jabki Sar Sayyad Sentral India ko gaye the a⁰r ja:te hue Gha:zi:pur meⁿ Thehre the.”

“Nima sababdandir o’sha xizmatchi ishdan bo’shaganida Sar Sayyad bir yumush yuzasidan Markaziy Hindistonga boradigan bo’lib qolgan va yo’lda G’oziiyurda to’xtagan edi.”

b. a) -pan, -pa: suffiksi sifatga qo’shiladi: Adj+pan (pa:)

bahra:pan – karlik, garanglik

ziddipan – o’jarlik, qaysarlik

bhola:pan – soddalik, soflik, oddiylik

“Lekin jald hi: in choTe-choTe muqa:bloⁿ, khel-tama:sha:oⁿ se ba:dsha:h ka: dil bhar gaya:. Idhar logoⁿ a^or lashkarioⁿ ke miza:j meⁿ tashaddud, khurdara:pan a^or tundi: a: gayi:”.

“Ammo sal o’tmay bu katta-kichik musobaqalaru tomoshalardan shohning ko’ngli bezdi. Bu yoqda esa odamlar va sipohiylarning fe’l-atvorida mushtumzo’rlik, qo’pollik va to’nglik paydo bo’la boshladi”.

“ChoTi: begum ko Karmu: ki: beti: Daru: ka: ka:m a^or sugharpa: pasand tha: voh har qi:mat par use apne sa:th shehar meⁿ rakhna: cha:hti: thi:”.

“Kichik xonimga Karmuning qizi Daruning ishi va bilarmonligi yoqardi. Qanday qilib bo’lsa ham o’zi bilan shaharga olib ketishni istardi”.

b) -pan, -pa: suffikslari otga ham qo’shib, mavhum ot yasaydi: N+pan (pa:). Bunda u shaxs bildiruvchi otlarga qo’shib, yasash asosi bilan bog’liq ravishda holatni anglatgan ot yasaydi:

laRakpan – bolalik, o’spirinlik

bachpan – bolalik

“Insa:n ki: zindagi: meⁿ sab se achcha: vaqt laRakpan ka: heⁱ. Is umr meⁿ a:dmi: ko kisi tarah ki: fikr nahi:ⁿ hoti. Ma:ⁿ ba:p niha:yat shafqat a^or muhabbat se usko pa:lte heⁱⁿ”.

“Inson hayotidagi eng yaxshi davr bu uning bolalik paytidir. Bu yoshda kishining biron o’y-tashvishi bo’lmaydi. Ota-ona esa benihoya mehr-muruvvat ila uni katta qiladi”.

v) Shuningdek, bu suffiks forschadan kirgan sifatdoshlarga ham qo’shiladi va mavhum ot yasaydi: P_{art}+pan

“Aji:b va:hiya:t insa:n heⁱ, kha:na: kha:te hue a:dmi: ke sa:mne ukru:ⁿ beⁱThe kutte ki: a:ⁿkh meⁿ bhi: itna: nadi:dapan nahi:ⁿ hota:., jitna: halva: pu:ri: kha:te a^or fa:lu:da pi:te logoⁿ ko dekhkar uski: nigahoⁿ se jhalakne lagta: heⁱⁿ”.

“G’alati bir bema’ni odam. Holva, puriy yeyayotgan va sharbat ichayotgan odamlarni ko’rib, ularga shunday suq nazar bilan

qarardiki, ovqat yeyayotgan odamning oldida muk tushib o’tirgan itning ko’zlarida ham bu qadar ochko’zlik bo’lmaydi”.

g) Shuningdek, -pan suffiksi –a:na suffiksli yasama sifatga ham qo’shiladi:

“Na^okar cha:kar bhi: kasrat se nahi:ⁿ hote jeⁱsa: hama:re yaha:ⁿ ke nava:b a^or farzi: shehza:doⁿ ke yaha:ⁿ dastu:r heⁱ. Haq yeh heⁱ ki turk is ba:t par jaha:ⁿ tak fakhr kareⁿ baja: heⁱ ki unhoⁿ ne chhe sa^o baras tak saltanat ke sa:ye meⁿ palkar sipa:hiya:napan nahi:ⁿ chhoRa:”.

“Bizdagi navoblaru soxta shahzodalarnikiday ularning cho’rixizmatkorlari ham ko’p bo’lmaydi. Rostini aytsak, turklar bu masalada qancha kerilsa, haqli. Ular olti yuz yil saltanat soyasida katta bo’lib jangarilikni tashlay demaydi”.

O’zbek tiliga –pan; –pa suffiksli yasama otlar ko’proq turlicha ma’no anglatadigan mavhum ot yasovchi –lik suffiksi bilan tarjima qilinadi.

c. –izm suffiksi eng kamunum suffiks hisoblanadi va biror ijtimoiy-siyosiy harakatlarga munosabat bildiruvchi holat oti yasaydi: N+izm

Bhuttoizm – Bhutto g’oyalari, bhuttoizm

O’zbek tilida –izm suffiksi –chilik, –lik suffikslariga to’g’ri keladi:

d. –s suffiksi sifatga qo’shiladi: Adj+s

mitha:s – 1) shirinlik 2) qandolat

“Bha^onre a^or shehad ki: makhiya:ⁿ bhi: jo phu:loⁿ kaliyoⁿ a^or darakh^{to} ke ba^or par mandla:ti: a^or khu:shbu: a^or mitha:s jama: karti: rehti:ⁿ, use ba:gh ki: ek-ek chi:z se pya:r”.

“Gullar, g’unchalar va daraxtlarning kurtaklari uzra charx urayotgan, xushbo’y hid va shira yig’ayotgan asalarilari, hatto qovog’arilar, [xullas], bog’dagi har bir narsa unga aziz edi”.

e. –iya arabcha suffiksi otga qo’shib, biror vazifa, maqsad va faoliyat uchun mo’ljallangan, shunga xoslangan narsaning otini yasaydi: N+iya

intiza:miya – ma’muriyat

baldiya – munisipalitet

insha:iya – ocherk, kichik hikoya

“Yeh niha:yat pechi:da nazariya vaqt a^or ka:ina:t se muta:lliq a:m tasavvura:t meⁿ inqila:bi: tabdi:liya:ⁿ la:ya: tha:.”

“Bu juda chigal nazariya vaqt va koinot bilan bog‘liq bo‘lgan umumiy [muammolari] tasavvurlar doirasiga inqilobiy o‘zgarishlar olib kirgan edi.”

f. –at arabcha suffiksi:

a) otga qo‘shilib, harakat-holatni anglatuvchi ot yasaydi: N+at
rangat – 1)rang, bo‘yoq; 2)ko‘rinish, tus, qiyofa
mula:zimat - ish, xizmat
malaliyat – g‘am-tashvish

“Tarah-tarah ke log un se milne a:te a^or tarah-tarah ki: farma:isheⁿ
karte. Koi: un se mula:zimat ke liye sifa:rish karne ko kehta:, koi: kisi:
ka:m ke liye.”

“Turfa xil odamlar u bilan uchrashgani kelar, turli-tuman narsalarni buyurishardi. Kimdir biron ishga tavsiya berishini so‘rar, yana kimdir boshqa ish bilan murojaat qilardi.”

b) –at suffiksi sifatga qo‘shilib mavhum ot yasaydi:
muna:sibat – 1)munosabat, o‘zaro aloqa; 2)mos kelish
muna:silat – o‘xshashlik, bir xillik
muna:faqat – riyo, munofiqlik

“Lekin kharch baRh gaya: tha:. Bachchoⁿ a^or apni zaru:ratoⁿ ke
ila:va ek mustaqil raqam unheⁿ har mahi:na ta:lib ilmoⁿ ki: anjumanoⁿ
ko deni: paRti thi:.”

“Ammo xarajatlar ko‘payib ketgan edi. Bolalar va o‘zining ehtiyojlaridan tashqari muayyan summani har oyda talabalarning tashkilotiga berishga to‘g‘ri kelardi.”

Savol va topshiriqlar:

2. Urducha – o‘zbekcha lug‘atdan mavhum otlarni topib ko‘chiring
3. Mavhum otlar ishtirokida 5 ta gap tuzish

3 - mavzu:

SHAXS NOMINI YASOVCHI SUFFIKSLAR

Darsning o‘quv maqsadi: talabalarda yasash asosidan shaxs nomini yasovchi suffikslar haqida ko‘nikma hosil qilish

Reja:

1. Yasash asosi anglatgan belgi, xususiyat bilan xarakterlanish ma‘nosidagi otlarning yasalishi

2. Shaxsning yasash asosidan anglashilgan narsani yasash, tayyorlash bilan shug‘ullanishini yoki ish-harakatni yasash asosi anglatgan narsa vositasida bajarilishini anglatuvchi otlarning yasalishi

3. Yasash asosidan anglashilgan narsaga ega yoki shu narsaning saqlovchisi yoki qo‘riqlovchisi bo‘lgan shaxsni bildiruvchi otlarning yasalishi

4. Yasash asosidan anglashilgan narsa yoki sohaning, kasbning egasi ekanini bildiruvchi otlarning yasalishi

Tayanch tushuncha va iboralar: yasash asosi, shaxs nomi, yasama otlar suffiks, polisemantik hususiyat

MAVZU BAYONI:

1. –i: suffiksi otlarga qo‘shilib, yasash asosi anglatgan belgi, xususiyat bilan xarakterlanish ma‘nosidagi ot yasaydi: N+i:

“Deha:t meⁿ ka:m ke vaqt ka:m a^or a:ra:m ke vaqt a:ra:m ki:ya
ja:ta: heⁱ. Isi: liye deha:ti: ba:shande shehriyoⁿ ke muqa:ble meⁿ
ziya:da cha:qo cha^oband, sehatnmand a^or tava:na: hote heⁱⁿ.”

“Qishloqda ish paytida ish, dam olish paytida dam olinadi. Shuning uchun qishloqdagilar shaharliklarga nisbatan ancha pishiq, sog‘lom va kuchli bo‘ladilar.”

“A:ka:sh par andhera: itna: hi: gehra: chha:ya: hua: tha: jitna:
qeⁱdi: ke man meⁿ.”

“Osmonni o‘rab olgan zulmat mahbusning qalbidagi qorong‘ulik qadar quyuq edi.”

Shuningdek, shaxsning yasash asosidan anglashilgan narsani yasash, tayyorlash bilan shug‘ullanishini yoki ish-harakatni yasash asosi anglatgan narsa vositasida bajarilishini anglatuvchi ot yasaydi:

halva:i: – holvachi

ghaRiya:li: - qo‘ng‘iroq chaluvchi

“Us ne kayi: ba:r ira:da ki:ya: heⁱ ki kisi: halva:yi: ki: duka:n ya:
kisi: hoTal meⁿ ghus kar ji: bharke kha:ye a^or khud ko duka:nda:r ya:
poli:s ke hava:le kar de”.

“U necha marta biron holvachining do‘koni yo biron taomxonaga kirib, to‘yguncha holva yesamu, keyin o‘zimni do‘konchi yo polisinyaning qo‘liga topshirsam, deb o‘yladi.”

“Meⁱⁿ jidhar se guza:rta: log ta:jjub se dekhte a^or khaRa: hota: to
tama:sha:iyoⁿ ki: bhi:R lag ja:ti:.”

“Men qaerga bormayin, odamlar hayrat bilan [menga] boqar, qaerda to‘xtasam, o‘sha yerda tomoshabinlar to‘planib olardi”.

-i suffiksli yasama otlar o'zbek tiliga eng sermahsul -chi suffiksi bilan berilishi mumkin. Bunda u shaxsning kasb-hunarini yoki uning biror belgi-xususiyatini anglatishi mumkin.

2. -ba:n(-va:n) suffiksi otlarga qo'shilib, yasash asosidan anglashilgan narsaga ega yoki shu narsaning saqlovchisi yoki qo'riqlovchisi bo'lgan shaxsni bildiruvchi ot yasaydi: N+ba:n(va:n)

niga:hba:n – 1) nazorat qiluvchi; qorovul; 2) saqlovchi

mezba:n – mezbon

Bu suffiks hindiy, ingliz so'zlariga ham qo'shiladi:

rathba:n – aravakash

ha:thi:ba:n – filbon

Ta:ngaba:n – to'ngachi, aravakash

“Karmu: ki: du:naya: ujaR chuki: thi:. Voh ba:ghba:n se ek ma:mu:li: khet mazdu:r ban gaya: a^or ba:gh ke baja:ye maveshi:yoⁿ ke baR meⁿ rehne laga: tha:”.

“Karmuning hayoti ostin-ustun bo'lib ketgan edi. U bog'bondan oddiy bir korandaga aylangan edi. Bog' emas, molxonada yashay boshlagan edi”.

“Kisi: hoTal ya: qehvakhane meⁿ do-cha:r chasma:shna: ittifa:q se mil gaye to jo kuch kharch hoga: ek shakhs sab ki: taraf se pe'se dega: goya: sab log us shakhs ke mehman:heⁱⁿ a^or voh mezba:n heⁱ.”

“Biron oshxona yo qahvaxonada ikki-uchta tanishlar tasodifan uchrashib qolsa, ketgan xarajat uchun pulni bir odam to'laydi, go'yo yig'ilganlar uning mehmonlari-yu, u esa mezbon.”

-ba:n suffiksi bilan yasalgan so'zlarga -i: suffiksi qo'shilsa, u mavhum otga aylanadi:

“Devda:r, akhrot a^or seb ke darakht dekhkar voh bahot khush hua:, use lagta: je'se voh darakhtoⁿ ki: jannat meⁿ a: gaya: heⁱ. Cha^odhri: sa:hab ki: koThi: meⁿ bhi: ba:ghba:ni: ka: sha^oq pu:ra: karne ki: ka:fi: gunja:yish thi:”.

“U yong'oq va olma daraxtlarini ko'rib, suyunib ketdi. O'zini daraxtlar jannatiga kirib qolganday sezdi. Choudhriy sohibning katta hovlisida ham bog'bonlik qilish istagini amalga oshirishga anchagina imkoniyat bor edi”.

O'zbek tilida ham -bon suffiksi bor:

darvozb^{on}, saroyb^{on}, tarozib^{on}

3. -chi: suffiksi shaxsning yasash asosidan anglashilgan narsa yoki sohaning, kasbning egasi ekanini bildiruvchi ot yasaydi: N+chi:

khiza:nchi: – xazinabon

ba:varchi: – oshpaz

banduqchi: – mergan

“Ba:varchi: ke sa:th mil kar na:shta tayya:r kar rahi: thi: ki acha:nak darakht ke Tu:Tne ki: a:va:z suna:yi: di:. Sa:th hi: Karmu: ki: e'si: chingha:r jiske ba:re meⁿ fe'sila karna: mushkil tha: ki voh chi:kh thi: ya: na:ra, sab log doRte hu:ye pahuⁿche”.

“Daru oshpaz bilan birga nonushta tayyorlayotgan edi. Birdan daraxtning qulagan ovozi eshitildi. Shu paytning o'zida Karmuning qattiq chinqirig'i eshitildi. Bu faryodmidi yoki hayqiriqmi – tushunib olish mahol edi.”

“Ek roz sab arka:ne da^olat apne apne pa:ye par khaRe the a^or har mulk ke ba:dsha:hoⁿ ke elchi: muba:rakba:d ki: kha:tir jo a:ye the voh bhi: sab ha:zir the.”

“Bir kuni barcha saroy amaldorlari tik turar, har yurt podshohining qutlash uchun kelgan elchilari ham hammasi hoziru nozir edi.” (MAD, VV, 9)

Bu suffiks o'zbek tilida ham mavjud: dutorchi, shaxmatchi, yilqichi.

4. -ka:r suffiksi yasash asosida ifodalangan narsa bo'yicha shaxsning kasb-hunarini bildiradigan ot yasaydi: N+ka:r

qalamka:r – rassom, musavvir

ka:shtka:r – dehqon, mirishkor

dastka:r – hunarmand

“LaRke in chi:zoⁿ se ka:m lekar a:lim, haki:m, dastka:r, kumha:r, mochi: har fan meⁿ ta:q a^or har hunar meⁿ mashsha:q ho ja:te he^{im}”.

“Yigitlar shu narsalardan foydalanib, olim, tabib, hunarmand, kulol, ko'nchi, xullas, har kasbning ustasi, har hunarda yakto bo'lib yetishadilar”.

“Agar tum se mardoⁿ ko baRe ka:moⁿ meⁿ madad mile to mard tumha:re tahe dil se izzat kareⁿge a^or tum ko apna sarta:j bana:kar rakheⁿge. Tum se behtar un ka: ghamgusa:r, tum se behtar un ka: salahka:r, tum se behtar un ka: kheyrkhah a^or kaⁿ heⁱ?”

“Agar erkaklarga katta-katta ishlarda yordaming tegsa, u holda erkaklar sidqidildan seni hurmat qilib, boshlariga qo'yadilar. Sendan yaxshiroq g'amxo'r, sendan yaxshiroq maslahatgo'y, sendan a'lo xayrixoh bormi ular uchun?”

Agar -ka:r suffiksi bilan yasalgan so'zlarga -i: suffiksi qo'shilsa, u konkret shaxs nomidan mavhum otga aylanadi, ya'ni kasb-hunarning nomini bildiruvchi ot yasaydi: N+ka:r+i:

"BaRe Cha^odhri: ke murabboⁿ meⁿ behneva:le kha:loⁿ par Karmu: ne shajarka:ri: kar rakhi: thi: a^or ab voh shehtu:toⁿva:le kha:l kehla:te the".

"[Karmu] katta Choudhriy sohibning yerlaridan oqib o'tadigan anhorlari bor pasttekisliklarga daraxtlar ekan edi va endi bu yerlar shohtutli pasttekisliklar deb atalardi".

5. -ga:r, (-gar) suffiksi ham kasb-hunarni anglatuvchi ot yasaydi: N+ga:r(gar)

khidmatga:r - xizmatkor

shi:shagar - oynasoz

ka:ri:gar - hunarmand

"Ma^olavi: sa:hab ke khidmatga:r jo sa:th a:ya: tha: chupke se keh diya: ki ma:ma: ko a:te-ja:te dekhthe raho." (NA, MU, 29)

"Mavlaviy sohib bilan birga kelgan xizmatkorga sekingina xizmatkor ayolning kelib-ketganidan xabardor bo'lib tur, deb aytdi."

"Lekin darya:fat karne ke ba:d ma:lu:m hua: ki kisi: yuropiyan sa^oda:gar ka: maka:n heⁱ. Sa:re shehar meⁿ ek bhi: umda duka:n ya: buland ima:rat kisi: musulma:n ki: na thi:".

"Surishtirib ko'rgach, ma'lum bo'ldiki, (bu) qaysidir xorijlik tojirning uyi ekan. Butun shaharda bironta yaxshi do'kon yoki baland imorat musulmonlarniki emas ekan".

-ga:r, -gar suffiksi mavhum tushunchalarni bildirgan otlarga qo'shilganda, shaxsning belgi, holat, xususiyat kabilarga munosabatini ifodalovchi ot yasaydi:

sitamgar - zolim, mustabid

guna:hga:r - gunohkor, jinoyatchi

madadga:r - yordamchi, yordam beruvchi

"Fan fa^ori: da:d ka: talabga:r hota heⁿ. Uⁿghte hu:e darba:r meⁿ Nu:rba:nu: ne ek hi: shakhs ko mutavajjo pa:ya:, to us se mukha:tib hokar ga:ne lagi:".

"San'at o'sha zahoti aytilgan tahsinni xush ko'radi. Mudroq bosgan saroy ahli orasida Nurbonu faqat bir kishining e'tibor berganini ko'rди va o'shanga yuzlanib kuylay boshladi".

7. -ba:i suffiksi eng kamunum suffiks hisoblanadi: N+ba:i

"Chalte chalte hama:re sha:mi: dostoⁿ ko bhu:k lagi: a^or ek na:nba:i ki: duka:n par ja: beⁱThe. Mujh ko agarchi ishtiha: na: thi: lekin un ke isra:r se shari:k hua:".

"Yurib-yurib, suriyalik do'stlarimizning qorni ochqadi va bir novvoyning do'koniga kirib bordik. Garchand qornim ochmagan bo'lsa-da, ularning qistovi bilan qo'shildim".

8. Yana bir kamunum suffikslardan biri -ha:r (-ha:ra:)dir: N+ha:r(ha:ra:)

lakaRha:ra: - o'tinchi

panha:ra: - meshkobchi, suv tashuvchi

pisanha:ra: - tegirmonchi

"Us ne bu:Rhe lakaRha:re ko bahot sa: ina:m di:ya: a^or jhu:Te da:veda:roⁿ ko ju:te lagva:ye."

"U kekxa o'tinchiga bir talay mukofot berdi, soxta da'vo qilganlarni esa sharmandasini chiqardi."

9. Yana bir suffiks -Ri: N+Ri:

"Ra:m ka: baya:n heⁱ Mathu:r sa:hab Bambay ke das-ba:rah behtari:n shatranj khilaRiyoⁿ meⁿ se heⁱⁿ." (XAA, K.j.I, 107)

"Ramning aytishicha, Mathur sohib Bombaydagi o'n-o'n ikki dong'i chiqqan shaxmatchilardan biri ekan."

10. -a:r suffiksi shaxsning yasash asosi anglatgan narsa bilan shug'ullanishini bildiruvchi ot yasaydi: N+a:r

sunar - zargar

loha:r - temirchi

"Thathera, kandaka:r, suna:r, loha:r, darzi:, mochi:, kumha:r vagheⁱra jitne pesheva:le heⁱⁿ sabke ka:moⁿ meⁿ bara:bar darjeki: taklif heⁿ."

"Tunukasoz, kandakor, zargar, temirchi, tikuvchi, ko'nchi, kulol va boshqa yana qancha kasb-hunar egalari bo'lsa, barining qilgan mehnatida bir xil zahmat bor".

11. -va:la: suffiksi eng sermahsul hisoblanib, polisemantik xususiyatga ega. Bu suffiks orqali yasalgan otning xilma-xil ma'nolari bevosita yasash asosining ma'nosi bilan bog'langan: N+va:la:

1) yasash asosidan anglashilgan narsaga ega ekanlikni anglatuvchi ot yasaydi:

"Yaha:ⁿ sab se ziya:da mujhko yeh ba:t pasand a:yi: ki tama:m duka:nda:r a^or pe'seva:le hatta ki quli: a^or mazdu:r bhi: niha:yat khu:shvaza a^or pa:ki:zaliba:s the".

“Menga bu yerda eng ko‘p yoqqan narsa shu bo‘ldiki, hamma do‘kondorlar, boylar, hattoki hammolu korandalar ham juda qomati raso va toza-ozoda kiyingan edi”.

d) “sifat+ot” tarkibli ravishga -va:la: qo‘shiladi va sifat yasaydi:

“ThoRe-ThoRe vaqtoⁿ ke ba:d guzashta ra:tva:li: jagah ka: chakkar laga:ya:, magar voh na mila:, mujhe us par ghussa a:ne laga:”

“Yana biroz turib, men o‘tgan tunda borgan joyimni aylanib chiqdi, ammo ko‘rmadim, undan jahlim chiqqa boshladi”.

“Phir Hindu:sta:n ke basneva:loⁿ ko dekho to ka:le bhi heⁱⁿ a‘r gore bhi:, ku:bsu:rat bhi: heⁱⁿ a‘r badsu:rat bhi:, lambe qadva:le bhi: heⁱⁿ a‘r chhoTe qadva:le, jugniyoⁿ ki: tarah zindagi: basar karneva:le a‘r baRe baRe shehroⁿ meⁿ rehneva:le bhi: heⁱⁿ”.

“Endi Hindistonda yashaydiganlarga razm sol – bu yerda qoralar ham bor, oqlar ham, chiroylisi ham bor, xunugi ham, bo‘ydorlar ham bor, past bo‘ylilari ham. Yovvoyilarday hayot kechiradiganlari ham bor, katta-katta shaharlarda yashaydiganlari ham bor”.

g) ravishlarga -va:la: suffiksi qo‘shilib, shaxs nomini yasaydi: Adv+va:la:

a:geva:la: – oldindagi (odam)

pi:chheva:le – orqadagilar

“Udharva:loⁿne dhamki: di: - “Thi:k-Thi:k ba:t karna:, varna: palaTkar ga:oⁿka: rukh na karna:”

“U yerdagilar po‘pisa qildi: “To‘g‘rilikcha gaplash, bo‘lmasa qaytib, qishloqqa qadam bosma”.

“LaRke do Toliyoⁿ meⁿ taqsi:m ho ja:te heⁱⁿ. Phir har laRka: apne sa:mneva:loⁿ ke pa:s neⁱza pheⁿka: heⁱ. Ab sa:mneva:le laRke ko ek hi: vaqt meⁿ do ka:m karne paRte heⁱⁿ”.

“Bolalar ikki guruhga bo‘linadilar. Keyin har bola qarshisidagilarga qarata nayza uloqtiradi. Endi to‘g‘rida turgan bolaning bir vaqtning o‘zida ikkita ish qilishiga to‘g‘ri keladi.” (VA, 60)

b) shaxsning biron joy, mamlakat, shaharga mansubligini bildiruvchi ot yasaydi:

“Suma:li: qa‘m ke bahot laRke dongiyoⁿ par sava:r jaha:z ke qari:b a:te a‘r jaha:zva:loⁿse ina:m lene ke liye aji:b-aji:b harkateⁿ karte the”.

“Somali millatiga mansub yigitlar qayiqdarga o‘tirib olib, kemaga yaqinlashgan paytda kemadagilardan pul olish uchun g‘alati-g‘alati qiliqlar qilishardi”.

v) shaxsning biron kasb-hunar bilan shug‘ullanishini anglatuvchi ot yasaydi:

“Na:nba:i ke lafz se hama:re qa:riyn ka: Hindu:sta:n ke rotiva:loⁿ a‘r un ki: zali:l duka:noⁿ ka: khaya:l a:ya: hoga:”.

“Nonvoy deyishim bilan o‘quvchilarimiz xayoliga hindistonlik nonvoylar va ularning sharmandali ahvoldagi do‘konlari kelgan bo‘lsa kerak”.

- va:la: suffiksi ingliz so‘zlariga ham qo‘shilib, shaxs nomini yasaydi:

“Magar har vaqt ja:n a‘r ma:l ka: khatra laga: rehta heⁱ. Ma:l ka: khatra is liye ki 1947 tak ka: kai: la:kh inkam Teksva:loⁿ ko ma:lu:m ho gaya: to Dar heⁱ ki kahi:ⁿ girifta:r na kar liya: ja:yeⁿ”.

“Ammo mol va jon qayg‘usi qiynaydi [ularni]. Mol qayg‘usi shuning uchunki, 1947 yilgacha bo‘lgan bir necha yuz ming miqdoridagi daromad solig‘i soliqchilarga ma‘lum bo‘lib qolsa, qamalib ketmasaydik, deb qo‘rqishardi.”

g) -va:la: suffiksi infinitivga qo‘shilib, shaxs nomini yasaydi va yasash asosi anglatgan ma‘no-harakatni bajaruvchi otni yasaydi: V_{inf}+va:la:

“Sar Sayyad ki: tabiat meⁿ ek kha:s sifat thi: jo baRe-baRe ka:moⁿ ka: bojh uTha:neva:loⁿ meⁿ honi: zaru:ri: heⁱⁿ”.

“Sar Sayyadning tabiatan o‘ziga xos bir fazilati bor edi – bu xislat buyuk ishlarning yukini ko‘taradiganlar fe‘l-atvorida mavjud bo‘lishi juda zarur”.

“Shehar ke arab bachche ba:qa:ida isku:l meⁿ ta:li:m pa:te heⁱⁿ. Lekin regista:n ke rehneva:le abhi: pura:ne maa:shirat par qa:yim heⁱⁿ”.

“Shaharda yashovchi arab bolalari, odatda, maktabda ta‘lim oladilar. Ammo sahroda yashovchilar hozircha eskicha hayot tarzini kechiradilar.” (VA, 60)

-va:la: cuffiksi juft fe‘l shakllariga qo‘shilib keladi:

“Muhalle a‘r shehar ki mukhtalif falla:hi: kameTi:yoⁿ ki: sargarmiya:ⁿ milne-julneva:loⁿ ki: bhi:R logoⁿ ke tarah-tarah ke masa:yal ke hal Dhu:nDna: yehi: un ki: zindagi: thi:”.

“Mahalla va shahar qoshidagi turli xil xayriya qo‘mitalarining faoliyati, murojaat qiluvchilar to‘dasi, odamlarning turli-tuman muammolarini hal qilish - shu edi ularning hayoti.”

12. -a:k, -ak suffiksi fe‘l o‘zagidan anglashilgan ish, kasb bilan shug‘ullanuvchi ot nomini yasaydi:

te‘ra:k – suzuvchi

lekhak – yozuvchi, muallif

pa:Thak – o‘quvchi, shogird

“Is meⁿ pasha:ni: ya becheⁱni: ki: kya: ba:t heⁱ kya: tum ne voh masal nahi:ⁿ suni: ki girte heⁱⁿ sha:hsuva:r hi: me^{da}:ne jang meⁿ. A^or yeh ki te‘ra:k hi: Du:bte heⁱⁿ.”

“Buning xafa bo‘ladigan yoki xavotir oladigan joyi yo‘q. Sen “Aynan chavandoz jang maydonida yiqiladi, yana cho‘kadigan ham suzuvchining o‘zi” degan maqolni eshitmaganmisan?”

Bu suffiks ham eng kamunum suffikslarga kiradi.

13. -iya: (-iya) suffiksi yuqoridagi ma‘noni anglatuvchi ot yasaydi: N+iya:(iya)

Da:kiya – xat tashuvchi, pochta

sa:rangiya: – sarangiy chaluvi

-----’A:j jab da:kiye ne mujhe ek lifa:fa thama:ya: to mei sarna:ma ki: tehr:r ko dekhkar hi: samajh gaya: yeh khat a:p ki: taraf se a:ya: hoga: (TU.490)

Bugun pochta qo‘limga konvert tutqazganida sarlavhani ko‘riboq bu xatni siz jo‘natganingizni tushundim.

Savol va topshiriqlar:

1. Yasash asosidan anglashilgan narsa yoki sohaning, kasbning egasi ekanini bildiruvchi otlarning yasalishiga misollar keltiring

2. -ba:n(-va:n) suffiksi otlarga qo‘shilib qanday ot yasaydi?

4 - mavzu:

O‘RIN-JOY VA KONKRET PREDMET NOMINI YASOVCHI SUFFIKSLAR

Darsning o‘quv maqsadi: talabalarda o‘rin-joy va konkret predmet nomini yasovchi suffikslarning qo‘llanilishi haqida ko‘nikma hosil qilish

Reja:

1. Shu xalq (millat) yashaydigan mamlakat ma‘nosidagi ot yasaydi yasash asosi anglatgan narsa ko‘p bo‘ladigan joy ma‘nosidagi otlarning yasalishi

2. Yasash asosida ifodalangan voqea-hodisalar yuz beradigan joy ma‘nosidagi otlarning yasalishi

3. Yasash asosidan anglashilgan narsalarni saqlashga moslangan, shu narsa solinadigan narsa, idishni anglatadigan otlarning yasalishi

4. Fe‘ldan ish-harakat qurolini, shu harakat bajarishga mo‘ljallangan asbobni bildiruvchi otlarning yasalishi

Tayanch tushuncha va iboralar: kamunum suffiks, yasovchi asos, suffiks

MAVZU BAYONI:

1. a) -ista:n (-sta:n) suffiksi xalq (millat) nomini bildiruvchi yoki boshqa biror so‘zga qo‘shilib, shu xalq (millat) yashaydigan mamlakat ma‘nosidagi ot yasaydi: N+ista:n(sta:n)

kohista:n – tog‘ tig‘masi, tog‘li joy

regista:n – sahro, biyobon

Hindu:sta:n – Hindiston

“Vila:yat ja:ne se pehle Sar Sayyad ka: liba:s hindu:sta:ni vazih ka: raha:, magar jab vila:yat ja:ne ka: ira:da ki:ya: mistar Hutan ne jo un ke dost the Inglista:n se un ko likha: ki yaha:ⁿ ao, to turki: liba:s pehnkar a:na”.

“Xorijga ketishdan oldin Sar Sayyad hindlarday kiyinardi, ammo xorijga ketishga qaror qilganida, uning do‘sti Hutan sohib Angliyadan unga xat jo‘natdi: “Bu yerga keladigan bo‘lsang, turkcha libos kiyib kel”.

b) -ista:n, -sta:n suffiksi yasovchi asos anglatgan narsa ko‘p bo‘lgan joy ma‘nosidagi ot yasaydi:

regista:n - sahro, dasht

qabrasta:n - mozor, qabriston

gulista:n - gulzor, chaman

“Cha:bi: dene se bahot der tak chalta: heⁱ a^or e^{si}: mi:Thi:-miThi: suri:li: ghanTiya:ⁿ bajti: thi:ⁿ je^{se} parista:n meⁿ pariya:ⁿ na:ch rahi: hoⁿ.”

“Kalit bilan buralsa, ancha vaqtgacha ishlaydi, shunaqa yoqimli, quloqqa xush yoqadigan qo‘ng‘iroqchalar chalinadiki, go‘yo paristonda parilar raqsga tushayotgandek.”

“Is lamhe meⁿ chha:gal meⁿ bahot thoRa: pa:ni: a^or badanoⁿ meⁿ bara:ye na:m ta:qat reh gayi: heⁱ. Ve^{ra}:ne meⁿ akela: khaRa: yeh hara:-bhara: darakht unheⁿ ek baRe nakhlista:n ki: tarah ma:lu:m hota: heⁿ.”

“Bu paytda burduqda ozgina suv, [kabutarlarning] tanalarida esa jindek quvvat qolgan edi. Kimsasiz huvillagan joyda tikkaygan mana shu ko‘m-ko‘k daraxt ularga katta vohaday ko‘rinardi”.

-iston, -ston suffiksi o‘zbek tiliga ham o‘zlashib kirgan: Guliston, Bahoriston, Armaniston.

2. -za:r forscha suffiksi otlarga qo‘shilib, yasash asosi anglatgan narsa ko‘p bo‘ladigan joy ma’nosidagi ot yasaydi: N+za:r

sabzaza:r – o‘tloq, maysazor

gulza:r – gulzor, chaman

la:laza:r – lolazor, bog‘

“Jis tarah ek chaman meⁿ tarah-tarah ke phu:l hote heⁿ a^or apni:-apni: baha:r alag-alag rakhte hu:ye sab milkar chaman ki: ra^onaq baRha:te heⁿ isi: tarah urdu: sha:i:ri: ke gulza:r meⁿ bhi: rang-rang ke phu:l khile jin ki: kh:shbu: is vaqt tak phe^{li}: huyi: heⁿ.”

“Bir chamanda turfa xil bo‘lib, har biri ayricha bo‘y taratsa ham, bir bo‘lib, chamanga jilo berganidek, urdu she‘riyati bo‘stonida ham rang-barang gullar yuz ochdiki, ularning xushbo‘y isi hanuzgacha anqib turibdi”.

-zor suffiksi o‘zbek tiliga ham o‘zlashgan: uzumzor, paxtazor, olmazor.

3. -ga:h forscha suffiksi otga qo‘shilib, yasash asosida ifodalangan voqea-hodisalar yuz beradigan joy ma’nosidagi ot yasaydi: N+ga:h

razmga:h – jang maydoni, janggoh

pana:hga:h – boshpana

lashkarga:h – harbiy lager

Bu suffiks arabcha so‘zlarga ham qo‘shiladi:

iqa:matga:h – qarorgoh, mehmonxon

sehatga:h – kurort, sanatoriy

rasadga:h – observatoriya, rasadxona

“Port Sa: id ek chhoTa: sa: kh:bsu:rat bandarga:h heⁱ. Jo hissa darya: se mutassil heⁱ us meⁿ umu:man yuropiyan sa^oda:gar rehte heⁿ.”

“Port Said bir kichikkina port bo‘lib, uning daryoga tutashgan qismida deyarli yevropalik tojirlar yashaydi”.

“Sar Sayyad taqri:ban hamesha subhke cha:r baje se sha:mke a:Th baje tak bara:bar ja:gte a^or mukhtalif ka:moⁿ meⁿ masru:f rehte the. Agar kabhi: ra:tko ni:nd na a:ti: a^or din ko ni:nd ka: ghalba ziya:da hota: to bhi: voh apni: nishastga:h se nahi:ⁿ uThte the”.

“Sar Sayyad deyarli har doim tonggi soat to‘rtdan kech sakkizgacha tinmay ishlar, turli ishlar bilan mashg‘ul bo‘lardi. Ba‘zan tunlari bedor bo‘lsa-yu, kunduzi uyqu bossa, shunda ham o‘tirgan joyidan jilmasdi”.

Bu suffiks o‘zbek tilida ham bor: sayrgoh, sayilgoh, oromgoh.

4. -pu:r hindcha suffiksi ham xuddi -istan, -sta:n suffikslari kabi biron shahar, umuman joy ma’nosidagi ot yasaydi: N+pur

Jamshedpu:r – Jamshidpur

Bi:ja:pu:r – Bijapur

Burha:npu:r – Burhonpur

“Vali: su:fi:miza:j insa:n the. Unka: asli: vatan to Ahmada:ba:d Gujra:t tha:. Magar voh kabhi: A^oranga:ba:d meⁿ to kabhi: Burha:npur meⁿ, kabhi: Surat meⁿ the to kabhi: Dilli: meⁿ. Is tarah voh urdu: ka: chira:gh har jagah ra^oshan kar rahe the”.

“Valiy so‘fiytabiat inson edi. Uning asl vatani Ahmadobod, Gujrat edi. Ammo u goh Avrangobodda bo‘lar, goh Burhonpurda, ba‘zan Suratda bo‘lsa, ba‘zan Dehlida yashardi. Shu tahlit u har yerda urdu tilini madh etardi”.

“Ek adna: sa^odagar Nisha:pu:r meⁿ heⁱ, us ne ba:rah da:ne la:l ke, har ek sa:t-sa:t misqa:l ka: heⁱ, patte meⁿ nasab karke kutte ke gale meⁿ Da:l diye heⁿ, - vazi:r ne kaha:.”

“Nishopurda oddiy bir savdogar yashaydi, u har biri yetti misqol keladigan o‘n ikki dona la‘lni bo‘yinboqqa o‘tkazib, itning bo‘yniga osib qo‘ygan”, - dedi vazir.” (M, VV, 8)

5. -da:n forscha suffiksi otga qo'shilib, yasash asosidan anglashilgan narsalarni saqlashga moslangan, shu narsa solinadigan narsa, idishni anglatadigan ot yasaydi: N+da:n

a:tishda:n – o'choq, manqal

qalamda:n – qalamdon, penal

ra^oshanda:n – 1) deraza 2) darcha

Bu suffiks hindiy so'zlariga ham qo'shiladi:

ra:khda:n – kuldon

singa:rda:n – quti (taqinchoqlar uchun)

“A:p us ki: mez par qalam dava:t ke sa:th har vaqt sa:lt ki: botal dekh sakte heⁱⁿ. Yeh qalamda:n ka: e^{isa}: juzv banke reh gayi: thi: ki ba:z a^oqa:t a:pko e^{isa}: ma:lu:m hoga: ki Singh “Maftun” apna: qalam ra^oshna:i: meⁿ dabu:ne ke badle salt meⁿ Dabuta: heⁱ a^or isi: se likhta: heⁱⁿ”.

“Uning stoli ustida qalam-davot bilan birga doimo tuz idishi turganini ko'rish mumkin. U qalamdonning ajralmas bir bo'lagiga aylangan edi. Uni ko'rgan odam “Oshiq” Singh ruchkasini siyohga emas, tuzga botirib yozadi, degan xayolga borardi.”

“KoThri: meⁿ chhat ke nazdi:k ra^oshanda:n tha: jis meⁿ moTi:-moTi: sulakheⁿ lagi: hu:yi: thi:ⁿ”.

“Kameraning shiftiga yaqin joyda yorug' kirib turishi uchun teshik bor edi. Unga yo'g'on-yo'g'on sim chiviqlar tortilgan edi.”

-don suffiksi o'zbek tiliga ham o'zlashib kirgan: surmadon, guldon, kuldon.

6. -ni: suffiksi juda kamunum hisoblanadi. U fe'ldan ish-harakat qurolini, shu harakat bajarishga mo'ljallangan asbobni bildiruvchi ot yasaydi: V_n+ni:

a^oRhni: – yopinchiq, ro'mol

likhni: – pero, ruchka

Savol va topshiriqlar:

1. -ista:n (-sta:n) suffiksi qatnashgan misollar tuzing –ba:n(-va:n) suffiksi otlarga qo'shilib qanday ot yasaydi?

2. Urducha – o'zbekcha lug'atdan -da:n forscha suffiksli otlarni toping

5 - mavzu:

MUANNAS JINSIDAGI OTLARNING YASALISHI

Darsning o'quv maqsadi: talabalarga muannas jinsidagi otlarning yasalishi haqida to'liq ma'lumot berish

Reja:

1. - a arabcha suffiksi muzakkar jinsidagi otlarga qo'shilishi orqali hosil bo'luvchi muannas jinsidagi otlar

2. Ot so'z turkumiga oid muzakkar jinsidagi otlarning oxiridagi -a: suffiksi -i:ga aylanishi orqali hosil bo'luvchi muannas jinsidagi otlar

3. Muzakkar jinsidagi otlarga -a:ni: suffiksi qo'shilishi orqali hosil bo'luvchi muannas jinsidagi otlar

4. Muzakkar jinsini bildirgan otlarga -ni: suffiksi qo'shilishi orqali hosil bo'luvchi muannas jinsidagi otlar

Tayanch tushuncha va iboralar: ot so'z turkumi, muzakkar jins, muannas jins, suffiks

MAVZU BAYONI:

1. -a arabcha suffiksi muzakkar jinsidagi otlarga qo'shiladi: N+a

va:lid – ota → va:lida – ona

va:ris – merosxo'r (erkak) → va:risa – merosxo'r (ayol)

sa:hira – ko'zboylog'ich (erkak) → sa:hira – ko'zboylog'ich (ayol)

“Sar Sayyad ne marne se chand sa:l pehle Mi:ruth meⁿ jaha:ⁿ unki va:lida madfu:n heⁱⁿ ek pablik spi:ch meⁿ apni: ma:ⁿka zikr ki:ya:”.

“Sar Sayyad o'limidan bir necha yil avval onasi dafn etilgan Mirut shahrida omma o'rtasida so'zlagan nutqida onasini tilga oldi”.

2. Ot so'z turkumiga oid muzakkar jinsidagi otlarning oxiridagi -a: suffiksi -i:ga aylanadi:

chokRa: – chokri:

“Ami:r chokriya:ⁿ apne na^okaroⁿ ke sa:th bha:g ja:ti: heⁱⁿ. Eⁱse qisse meⁱⁿ ne sune zaru:r the”.

“Boylarning qizlari xizmatkorlari bilan qochib ketishadi. Bunday voqealarni men eshitganman, albatta”.

3. Muzakkar jinsidagi otlarga -a:ni: suffiksi qo'shiladi: N+a:ni:

devar – qayni → devara:ni: – ovsin

mehtar – farrosh (erkak) → mehtara:ni: – farrosh ayol yoki farroshning xotini

“Us ki: hamjoliyoⁿ meⁿse sirf Shaydu mehtara:ni:ko jo gharoⁿ meⁿ safa:yi: ka: ka:m karne ja:ti: thi: ma:lu:m he¹ ki uski: ju:n badal gayi: thi:”.

“Uning tengqurlari orasida faqat uylarni tozalaydigan Shaydu farroshgina uning ko‘rinishi o‘zgarib qolganini bilardi.”

“Na^okara:ni: kapRoⁿ ka: joRa:, cha:valoⁿ ka: tha:l a^or pa:nch ru:pe ka: nouT lekar a:yi: a^or sab kuch us ki: jholi: meⁿ Da:lkar chali: gayi:.”

“Xizmatkor ayol bir juft ko‘ylaklik, laganda guruch va besh rupiya olib keldi-da, hammasini uning xaltasiga solib, qaytib ketdi.” (M, MA, 227)

4 . Muzakkar jinsidagi otlarga -in(n) suffiksi qo‘shiladi: N+in(n)

Ko‘pincha ot agar a: ga tugagan bo‘lsa, tushib qoladi.

jula:ha: – to‘quvchi (er) → jula:hin – to‘quvchi ayol yoki to‘quvchining xotini

dhobi: - kir yuvuvchi (er) → dhobin – kir yuvuvchi ayol yoki kir yuvuvchining xotini

“Zara: la^ondiya: ka: joban to dekh, a^or apne muhalle ki: ka:li:-kaloti: jula:hinoⁿ ka: muqa:bla to kar”.

“Qizning yetilganini ko‘r-da, mahallangdagi qora-qura to‘quvchi qizlarga bir solishtirib ko‘r”.

“Mardoⁿ ke bhare mele meⁿ banja:rinoⁿ a^or bhika:rinoⁿ ke ila:va a^orateⁿ sarkasoⁿ a^or thi:Throⁿ ke andar thi:”, is liye sab logoⁿ ka: rukh udhar ko tha:.” [M, MA, 202]

“Erkaklar bilan to‘lgan bu tomoshada lo‘li va tilanchi ayollardan boshqa hamma xotin-xalaj sirk va teatr ichida (o‘tirgan) edi, shuning uchun hamma o‘sha tomonga qarab yurayotgan edi.”

5. Muzakkar jinsidagi a: ga tugagan otlarda a: tushib qolib -iya: suffiksi qo‘shiladi: N+iya:

bu:Rha: – burhiya:

londa: – londiya:

“Magar ghar ka: sab ka:m-ka:j mujhe hi: dekhna: paRta: tha: Kha:na: paka:ne ko ek buRhiya: do vaqt a: ja:ti: thi:”.

“Ammo uydagi bor yumush mening zimmamda edi. Ovqat qilgani bir kekxa ayol ikki marta kelar edi”.

Jonivorlarni anglatgan so‘zlarda ham muannas jinsi quyidagicha yasaladi:

1. Muzakkar jinsini bildirgan otlardagi a: xarfi i: ga aylanadi:

bakra: - bakri:

ghoRa: - ghoRi:

“Nambarda:r ki: ghoRi: jise ra:ni: ke na:m se puka:ra: ja:ta: tha: jo us ki: ikla^oti: beTi: Ba:nu: ko bahot azi:z thi: chori: karke le gaye the.”

“Qishloq oqsoqolining Raniy laqabli biyasi bor edi. U oqsoqolning yolg‘iz qizi Bonuga qadri edi - shuni (qurollanganlar) o‘g‘irlab ketishgan edi.”

2. Muzakkar jinsini bildirgan otlarga -in suffiksi qo‘shiladi: N+in

ba:gh – yo‘lbars → ba:ghin – urg‘ochi yo‘lbars

sa:ⁿp – ilon → sa:ⁿpin – moda ilon

“-Putr, bakri: meⁿ ab log dilchaspi: nahi:ⁿ lete, phir kambakht mamiya:ne lagti: he¹. Tab koyi: sa:ⁿp, sa:ⁿpin, koyi: na:g, na:gin?” [M, MA, 198]

“-O‘g‘lim, odamlar hozir echkiga qiziqmay qo‘ydi. Buning ustiga badbaxtning ma‘rashi bor. Unda biron ilon yoki modasi, kobra yoki urg‘ochisini (o‘ynataylik)?”

3. Muzakkar jinsini bildirgan otlarga -iya: suffiksi qo‘shiladi: N+iya:

kutta: – it (erkak) → kuttya: – urg‘ochi it

chu:ha – sichqon (erkak) → chu:hiya: – urg‘ochi sichqon

4. Muzakkar jinsini bildirgan otlarga -ni: suffiksi qo‘shiladi: N+ni:

hiran – kiyik (er) → hirmi: – urg‘ochi kiyik

u:ⁿT – tuya (erkak) → u:ⁿTni: – urg‘ochi tuya

“Voh khetoⁿ khaliya:noⁿ meⁿ hirni: ki: tarah qulla:ⁿcheⁿ bharne, peRoⁿ par pengeⁿ jhu:lneva:li: hava: ke dosh par uRneva:li: larki: ek hi: ra:t meⁿ ek mariyal si: bheR meⁿ tabdi:l ho gayi: thi:”.

“O‘sha dala-dashtlarda kiyik kabi irg‘ishlab chopadigan, daraxtlarga halinchak solib, yellarning yelkasida uchib yuradigan qiz bir kechadayoq chalajon qo‘yga aylangandek edi”.

Savol va topshiriqlar:

1. Urducha – o‘zbekcha lug‘atdan muzakkar jinsidagi otlarga -a:ni: suffiksi qo‘shilishi orqali hosil bo‘luvchi muannas jinsidagi so‘zlarni toping

2. Muzakkar jinsidagi a: ga tugagan otlarda a: tushib qolib -iya: suffiksi qo‘shilishiga mustaqil misollar keltiring

6 - mavzu:
SUFFIKSLAR YORDAMIDA SIFATLARNING
YASALISHI

Darsning o'quv maqsadi: talabalarda sifatlarning suffikslar vositasida yasalihi haqida ko'nikma hosil qilish

Reja:

1. -va:la: sifat yasovchi suffiksining hususiyatlari
2. Mavhum otlarga qo'shilib, aloqadorlik, xoslanganlik ma'nolarini bildiruvchi sifat yasovchi suffikslar
3. Otdan sifat yasovchi sermahsul suffikslar
4. Otga qo'shilib, biron belgi-xususiyatni bildiruvchi sifat yasovchi suffikslar

Tayanch tushuncha va iboralar: sifat yasovchi suffiks, okkazional hodisa, sodda otlar, qo'shma otlar, qardosh suffiks, yasama ot

MAVZU BAYONI:

1. -va:la: eng sermahsul sifat yasovchi suffiks hisoblanadi. Ushbu hindcha suffiks yordamida yasalgan sifatlarga lug'aviy turg'un emas, ularning ko'pi lug'aviy birlikka kirmaydi va har gal nutq jarayonida yasalihi mumkin, ya'ni bu okkazional hodisa hisoblanadi.

-va:la: suffiks otlarga qo'shilganda, turli ma'noli sifat yasaydi: V+Sf. va:la:

a) yasash asosi bo'lgan otdan anglashilgan narsaga egalikni, o'sha narsaning borligini, mavjudligini bildiradi:

pe'seva:la: – boy, puldor, badavlat

hurmatva:la: – muhtaram, hurmatli

burqava:li: – paranjili, burqa yopingan (ayol)

“Gharoⁿ ke eⁿ darmiya:ⁿ ek chabu:tra: sa: bana: hua: tha: jis par su:khi: hui: lakRiyoⁿ ka dher paRa: rehta: tha: a^or jise ghar ke log zaru:rat ke vaqt bhi: nahi:ⁿ jala:te the. Darasl yeh ek qabr thi: a^or usi: ki: nigra:ni: ki: kha:tir voh log ga:oⁿva:la: maka:n chhoRkar yaha:ⁿ muntaqil hue the”.

“Uyning naq o'rtasida do'nglikka o'xshash narsa qad ko'targan edi, uning ustiga qurigan shox-shabbalar to'dalab qo'yilgandi. Uy egalari ularni kerak bo'lganda ham ishlatmas edilar. Aslida bu qabr edi. Xuddi shunga ko'z-quloq bo'lib turish uchun ular qishloqdagi uyni tashlab, shu yerga ko'chib kelgan edilar”.

-va:la: suffiksi nafaqat sodda otlarga, balki qo'shma otlarga ham qo'shilib, sifat yasaydi:

“Sab ka: khaya:l tha: voh a:ra:mkursi:va:li: siya:sat meⁿ chalega: a^or kita:boⁿ ki: ba:teⁿ duhra:ya: ja:yega:”.

“Hammaning fikricha, u yumshoq o'rindiqli siyosatga kirib ketadi va kitobiy gaplarni aytib yuradi”.

Shuni ta'kidlash kerakki, va:la: suffiks –a: ga tugagan otlarga qo'shilsa, vositali kelishikdagi shakl singari –a: qo'shimchasi –e ga aylanadi:

“Yeh mehman heⁱⁿ a^or sha:yad paresha:ⁿ heⁱⁿ” – adhe^oR umr ka: ek sanji:da chehreva:la: shakhs bola: “A:p log unka: maza:q na uRa:yeⁿ”.

“Bu mehmon, xafa ko'rinadi, - o'rta yoshlardagi ko'rinishi jiddiy bir odam dedi, - sizlar mazah qilmanglar uni”.

Shuningdek, ko'plik sonidagi otlarga -va:la: suffiks qo'shilganda, sifat ko'plik sonining vositali kelishikdagi shaklini oladi:

“Lekin yeh chehra hargiz mera: nahi:ⁿ tha: A:ⁿkheⁿ, peshani:, na:k, sar ke ba:l koi: bhi: chi:z meri: nahi:ⁿ thi:, jeyse koi: sote meⁿ mera: dukhta: hua: chehra chura:kar le gaya: tha: a^or uski: jagah jhuriyoⁿ a^or safed ba:loⁿva:li: gardan mere kandhe par laga: gaya: ho”.

“Ammo bu yuz aslo meniki emasdi. Ko'zlar, peshona, burun, soch – birontasi o'zimmiki emasdi. Go'yo kimdir uxlayotganimda mening g'amga botgan yuzimni o'g'irlab, o'rniga ajin bosgan, oq sochli boshni yelkamga qo'ndirib ketgandek”.

b) -va:la: suffiks ravishlarga qo'shiladi va sifat yasaydi: Adv.+Sf.va:la:

ba:har – tashqarida, tashqariga → ba:harva:la: – a) tashqi, tashqaridagi;

b) chet, begona

sa:mne – qarshida, qarshiga → sa:mneva:la: – qarshidagi

vaha:ⁿ – u yerda, o'sha yerga → vaha:ⁿva:la: – o'sha yerlik

“Sab log palaT-palaTkar mujhe dekhne lage phir sa:thva:li: si:Tke sarda:r ji: apna: chehra mujhe dikha:te hue kaha:”.

“Hamma men tomonga o'girilib qaray boshladi. Keyin yonimdagi o'rindiqa o'tirgan sardor jiy menga qarab dedi”.

v) -va:la: suffiks vositali infinitivga qo'shilib sifat yasaydi. Vinf.+Sf.va:la: –va:la: suffiks potensial fe'llarga qo'shilib keladi:

“Albatta laRke ba:le din bhar yaha:ⁿ khelte a^or udham macha:ye rakhte the. Kya: pata Karmu: ko un meⁿ apne pe^{da} na ho sakneva:le laRkoⁿ ki: su:rateⁿ nazar a:ti: hoⁿ.”

“Bolalar bu yerda kun bo‘yi o‘ynab, to‘s-to‘polon qilishardi. Kim bilsin, Karmu ularda tug‘ilmay qolgan bolalarining qiyofasini ko‘rarmidi?”

”Meⁿ ne mashvara diya: ki voh sirf un chi:zoⁿ ke na:m bata:ye jin ke za:yeqe se voh a:shna: tha: lekin voh riza:mand na hua:. Uska: kehna: tha: ki: voh lazi:z chizoⁿ ke zikr se ha:sil honeva:li: lazzat se mehru:m hona: nahi:ⁿ cha:hta:.”

“Men undan faqat o‘zi ta‘mini yaxshi bilgan narsalarning nomini so‘radim. U ko‘nmadi. Aytishicha, mazali narsalarni tilga olgandayoq bo‘ladigan huzurdan mahrum bo‘lishni istamas ekan”.

g) -va:la: suffiksi murakkab poslelogli otga qo‘shilib, sifat yasaydi: N_{postp.}+Sf.va:la:

“Use yeh jagah jannat ka: tukRa: ma:lu:m hoti: thi:. Nehr ki: vajahse jhoⁿpri: ke qari:b va:le kuⁿveiⁿ ka: pa:ni: bahot ThanDa: hota: heⁿ.”

“Bu joy unga jannatning bir bo‘lagiday tuyulardi. Ariqning bo‘yida bo‘lganidan kulbaning yaqinidagi quduqning suvi rosa muzday bo‘ladi”.

“Lekin Karmu: ko to masjid ke pichhva:Reva:le meⁱda:n ke seb ke darakht bhi: azi:z the jo niha:yat badvaza a^or TeRhe-meRhe the”.

“Ammo Karmu uchun masjid orqasidagi maydondagi juda beo‘xshov, qiyshiq-qing‘ir olma daraxtlari ham aziz edi”.

-vala: suffiksi atoqli ism yoki joy nomlariga qo‘shilib, sifat yasaydi:

“Ramkandva:li: saRak ko Sultana:ba:d a^or Parbatpu:rva:li: saRkoⁿ se a^or un tinoⁿ ko is nayi: saRak se jo jangal a^or pahaRoⁿ ka: si:na chi:rti: hui: idhar a: rahi: he mila:ta: heⁿ.”

“Ramkand ko‘chasini Sul-tonobod va Parbatpur ko‘chalari bilan va bularning uchovini o‘rmon va tog‘larning bag‘rini yorib o‘tadigan yangi ko‘cha bilan birlashtiradi”.

-Va:la: suffiksi, o‘zbek tilidagi tarjimalardan ko‘rinib turibdiki, ko‘pincha -li suffiksi yoki -dagi qo‘shimchasi bilan beriladi.

2. -i: (-vi:) suffiksi eng serunum suffiks hisoblanadi. Ko‘pincha nisbiy sifatlar -i: suffiksi (ya:ye-nisbat, ya‘ni nisbiy -i:) bilan yasaladi. U shakli va ma‘nosiga ko‘ra hindcha -i: (sanskritcha -

i:n dan kelib chiqqan) bilan etimologiyasi jihatdan qardosh suffiks hisoblanadi¹.

a) mavhum otlarga qo‘shilib, shu narsaga aloqadorlik, unga xoslanganlik ma‘nolarini bildiruvchi sifat yasaydi:

mazhabi: – diniy, mazhabiy

takhri:bi: – qo‘poruvchi, buzg‘unchi

tashri:hi: – 1) sharhlovchi, 2) batafsil, to‘la-to‘kis

“Agarche Sar Sayyad ki: sirrisht meⁿ afu-ighma:z fitratan da:kh^l tha: magar un ki: va:lida ki: ibtida:i: rok-tok a^or husne tarbiyat se yeh tama:m malaka:t un ki: tabiat meⁿ a^or bhi: ziya:da ra:sukh ho gaye the”.

“Garchi Sar Sayyad tabiatan kechirimli bo‘lsa-da, undagi bor yaxshi xislatlar onasining dastlabki qarshiliklari va chiroyli tarbiyasidan uning fe‘l-atvoriga yanada ko‘proq singib borgan edi”.

Bu suffiks ko‘proq arab tilidan qabul qilingan so‘zlar tarkibida qo‘llanadi. Shunga ko‘ra, o‘zbek tiliga o‘zlashib kirgan ba‘zi arabcha sifatlarda -iy (viy) suffiksi har doim ham suffiks sifatida ajratilmaydi: haqqoniy, ashaddiy, jiddiy, ommaviy, dunyoviy.

b) mavhum otlarga qo‘shilib, shu ot anglatgan ma‘noga ega sifat yasaydi:

“Niha:yat mehnati: a^or qa:bile etiba:r. Un ki: vajah se Chaodhri: femili ke masa:yal hal ho gaye, Karmu: ma:li: a^or cha^okida:r ka: ka:m sambha:l liya: a^or Da:ru: ne ghar ka: sa:ra: ka:m”.

“[Ular] juda mehnatkash va ishonchli (edilar). Ular tufayli Choudhriylarning ko‘p muammolari hal bo‘ldi-qoldi. Karmu bog‘bon va qorovullikni zimmasiga oldi, Daru esa uy ishlariga qaraydigan bo‘ldi”.

v) yasash asosi anglatgan o‘rin-joyga tegishli ekanlikni bildiruvchi sifat yasaydi:

ba:tini: – ichki, botiniy

khala:yi: – kosmik, kosmosga oid

uttari: – shimoliy

“Sar Sayyad ke chehre ki: bana:vaT a^or badan ki: tarki:b a^or tama:m hayyat majmu:i: e’si: va:qa hui: thi: ki sirf unki: su:rat dekhne se ba:tini: azmat ka: khaya:l peⁱda: hota: tha:”.

¹ Хинди и урду. Вопросы лексикологии и словообразования. Восточная литература - М., - 1960. - с.176

“Sar Sayyadning yuz tuzilishi, qaddi-qomati, umuman qiyofasi shunday ediki, uni ko‘rgandayoq botiniy ulug‘vorlikni tasavvur qilish mumkin edi”.

Ba‘zan bu suffiks o‘zbek tilidagi yasash asosidan anglashilgan o‘rin va paytga munosabatni bildiruvchi –gi (-ki, -qi) - suffikslar bilan berilishi mumkin:

da:khli: – ichki

ba:hiri: – tashqi

sarma:yi: – qishki

garma:yi: – yozgi

Ba‘zan ingliz tilidan kirgan so‘zlarga ham qo‘shiladi:

roma:ni: – xayolparast, romantik

Shuni aytish kerakki, o‘zbek tilidagi –cha suffiksi aslida ravish yasaydi, ammo ba‘zan sifat yasashga ham xizmat qiladi. Binobarin –i: suffiksli sifatlar –cha suffiksi bilan tarjima qilinishi mumkin. Bunda yasash asosi etnik va geografik nom bilan bog‘liq ma‘noni anglatishi mumkin.

“Ek taraf voh zindagi: thi: jo se‘kRoⁿ sa:l se ek hi: ha:l par chali ja: rahi: thi: a^or du:sri: taraf maghri:bi: ta:li:m, angrezi: adab, siya:si: khaya:la:t, press, re‘l a^or ta:r ke asar se pe‘da: honeva:li: nayi: zindagi:”.

“Bir tomonda ming yillardan beri bir maromda o‘zgarishsiz kechayotgan hayot davom etayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan g‘arbcha ta‘lim, inglizcha adabiyot, siyosiy tasavvurlar, matbuot, temir yo‘l, telegrafning ta‘siri ostida yuzaga kelayotgan yangi hayot...”

Agar ot –a (“hae-havvaz”)ga tugagan bo‘lsa, -i: suffiksi -gi: shaklini oladi:

“Voh jaha:ⁿ tak mumkin hota: tha: ranj a^or afsurdagi: ko kabhi: pa:s a:ne na dete a^or kha:nagi: bakheroⁿ a^or kharkhashoⁿ se ta:bamaqdu:r alag-thalag rehte the”.

“U iloji boricha g‘am-g‘ussa va umidsizlikka berilmaslik va o‘zini oilaviy g‘avg‘olar va janjallardan uzoqroq tutardi”.

-vi: esa -i: suffiksining fonetik varianti hisoblanadi:

Is vasi:h muta:le ka: ek fa:ida yeh hu:a: ki mujhe urdu: ke afsa:nvi: adab se kha:si: va:qifiyat ho gayi:

(uni) chuqur o‘rganish mening urdu tilidagi hikoyanavislik bilan yaqindan tanishish uchun foyda berdi(TU 344)

Nasi:m Hija:zi: ko na:vlon ke kirda:ron ki: guftgu: mei ikhtisa:r for ma:navi: gehra:yi: hei (TU 342)

Nasim Hijoziy qissalaridagi obrazlarning nutqi muxtasar, ma‘no-mazmun jihatidan terandir.

3. –a: hindcha suffiksi otdan sifat yasovchi sermahsul suffikslardan hisoblanadi: N+Sf.a:

bhu:ka: – och, och-nahor

pya:sa: – chanqoq, chanqagan, suvsagan

thanDa: – sovuq, muzdek

“Tama:sha:iyoⁿ meⁿ har umr ke log sha:mil the. Magar sirf bachche heyrat, tajassus a^or dilchaspi: ka: izha:r karte. BaRi: umr ke mard bhu:ki: a^or lalcha:i: nazroⁿ se dekhte, laRke fiqre kaste, koi: a:“kh ma:rta:, koi: si:Ti: baja:ta:”.

“Tomoshabinlar turli yoshdagi odamlar edi. Ammo faqat bolalar hayrat bilan, mahliyo bo‘lib, qiziqib qarardi. Erkaklar esa och, hirsli nazar bilan qarar, yigitlar gap otar, ba‘zilari ko‘z urishtirar, ba‘zilari hushtak chalardi”.

“Ti:n baras us ne is ka:l koThri: meⁿ apni: andru:ni: shole ki: ra^oshni: meⁿ guza:re the. Ab to dil ki: teh meⁿ ra:kh bhi: ThanDi: ho chuki: thi:”.

“Uch yilni mana shu zimiston xonada yuragidagi o‘tning yorug‘i bilan o‘tkazdi. Endi esa qalbining tubidagi kul ham sovub bo‘lgandi”.

4. –mand forscha suffiksi otlarga qo‘shilib sifat yasaydi. Yasash asosi anglatgan narsa yoki holatga egalikni bildiradi: N+Sf.mand

raza:mand – rozi, rozi bo‘lgan

kha:hishmand – ko‘ngilli, istovchi

sehatmand – sog‘lom, baquvvat

“Darba:r ke gavaye a^or mu:si:qa:r bhi: uski: a:va:z a^or fan ki: azmat tasli:m karne lage to ba:dsha:h ne apne muqarrab vusa:tat se Nu:rba:nu: ko darba:r se va:basta hone ki: da:vat di: magar Nu:rba:nu: la:khoⁿ karoRoⁿ parista:roⁿ se kaTkar darba:r tak mehdu:d ho ja:ne par raza:mand na hu:i:”.

“Saroy qo‘shiqchilari va sozandalari ham uning ovozi, mahoratini tan ola boshlagach, shoh yaqin kishilari orqali Nurbonuga saroy ahliga qo‘shilishini taklif qildi. Biroq u minglab muxlislaridan uzilib, saroy bilan cheklanib qolishga rozi bo‘lmadi”.

–mand suffiksli yasama otga -i: suffiksi qo‘shilsa, u mavhum otga aylanadi:

ehsa:nmandi: – minnatdorchiilik, tashakkur
ha:jatmandi: – 1) ehtiyoj, zaruriyat, hojat 2) muhtojlik,
qashshoqlik

dardmandi: – achinish, qayg‘urish, dardga sherik bo‘lish

“Aqabi: hisse ki: ta:mi:r karne ka: mashvara unheⁿ unke ek
Thekeda:r dost ne diya: tha: jiska: kehna: tha: ki itni sa:ri jagah mehza
phu:l pa^odoⁿ ke liye chhoR dena: kaha:ⁿ ki: da:nishmandi: thi: jabke
aneksi: ki: ta:mi:r se har ma:h achcha: kha:sa: kira:ya ha:sil ho sakta:
tha:”.

“Orqadagi yerni tuzatib ta‘mirlashni uning bir pudratchi do‘sti
maslahat bergan edi. Aytishiga qaraganda, qo‘shib olingan yerni qayta
ta‘mirlashdan har oyda yaxshigina foyda olish mumkin bo‘lib
turganda shuncha yerni faqat gul ekib, daraxt o‘tkazish uchun tashlab
qo‘yish aqldan emas”.

Bu forscha suffiks ham o‘zbek tilida keng qo‘llaniladi: dardmand,
orzumand, ixlosmand.

Savol va topshiriqlar:

1. Urducha – o‘zbekcha lug‘atdan -va:la: suffiksi qo‘shilishi
orqali hosil bo‘luvchi so‘zlarni toping
2. -a:na forscha suffiksi otlarga qo‘shilib sifat yasashiga misollar
keltiring

7 - mavzu:

FORSCHA SUFFIKSLAR YORDAMIDA SIFATLARNING YASALISHI

Darsning o‘quv maqsadi: talabalarda sifatlarning forsiy
suffikslar vositasida yasalishi haqida ko‘nikma hosil qilish

Reja:

1. Fe‘l o‘zagiga qo‘shilib keladigan suffikslar
2. Harakat jarayonini anglatuvchi otlarning yasalishi
3. Holat, harakat bilan bog‘liq jarayon, belgi-xususiyatni
bildiruvchi otlarning yasalishi
4. Mavhum ot yasashda kamunum suffikslarning
qo‘llanilishi

Tayanch tushuncha va iboralar: suffiks, mavhum ot, fe‘l
o‘zagi, yasash asosi, mahsuldor suffiks, kamunum suffiks

MAVZU BAYONI:

5. -a:na forscha suffiksi otlarga qo‘shilib sifat yasaydi va ish-
harakatning belgisini, yasash asosidan anglashilgan narsa yoki voqea-
hodisaga taqqoslash, o‘xshatish ma‘nolarini bildiradi: N+Sf.a:na

ja:bira:na – mustabid, istibdodga asoslangan

sha:ira:na – shoirona, shoirlarga xos

buzurga:na – ota-bobolarga xos

Ba‘zan bu suffiks yasama otlarga qo‘shilib kelishi mumkin:

sarma:yada:ra:na – kapitalistik, sarmoyadorlikka oid

pesha:vara:na – professional, kasb-hunarga oid

“Nazm sha:yad fani: etiba:r se bahot achchi: na thi: us meⁿ Ta:j
Mahal khari:dne ke liye meⁿ ne jo fa:qe kiye the, kuch kita:beⁿ bechi:
thi:ⁿ, uske girkar Tu:Tne ka: bhi: zikr tha: – uske Tu:Tne ka: java:z
zara: sha:ira:na anda:z meⁿ bata:ya: gaya: tha: ki voh us ke husn-o
jama:l ki: ta:b na la: saka:”.

“She‘r badiiy jihatdan uncha yaxshi emasdi. Unda Toj Mahal
(haykalcha) sotib olish uchun qancha och yurganimni, qancha kitob
sotganim – hammasi yozilgan edi. Uning sinib qolganligini shoirona
uslubda, ya‘ni u (haykalcha) qizning husn-jamoliga dosh bera olmay
sinib qoldi, deb ta‘riflagan edim”.

-a:na suffiksi joy nomiga qo‘shilib, u anglatgan geografik nom
bilan bog‘liq sifat yasaydi:

“BeiTh ja:ne ke ba:d ha:ziri: meⁿ se har shakhs ki: taraf alag-alag
mukhatib hokar sala:m karna: paRta: heⁱ. Ma:lu:m nahi:ⁿ turk je‘se
sipa:hiyoⁿ ko ye lakhnova:na takalluf kis ne sikha:ya:”

“O‘tirgandan so‘ng yig‘ilganlarning har biri bilan alohida-alohida
murojaat qilib salomlashishga to‘g‘ri keladi. Turklarday sipohiy
xalqqa bu laknavcha mulozamatni kim o‘rgatgan, ma‘lum emas”.

Agar sifat “alif”ga tugagan bo‘lsa, -a:na suffiksi -ga:na shaklini
oladi:

“Ek na:va:qif shakhs bhi: sirf us ke rozmarra ke ka:m dekhkar is
qadar zaru:r samajh sakta: tha: ki us shakhs ki: khilqat ma:mu:li:
a:dmiyoⁿ ki: khilqat se judaga:na thi:”

“[Uni] bilmagan odam ham uning kunda qilayotgan ishini ko‘rib
shuni aniq tushunib yetishi mumkinki, bu odamning tabiati oddiy
odamlarnikidan o‘zgacha edi.”

Ba‘zan -a:na suffiksli sifatlarning substantivatsiyaga uchrashi
mumkin:

“Sar Sayyad ke dostoⁿ meⁿ bahot se eⁱse the jinki: dosti: ya:ra:na ke darje tak pahuⁿch gayi: thi:”

“Sar Sayyadning do‘stlari orasida shundaylari ham bor ediki, ularning do‘stligi og‘aynilarcha edi.”

-a:na suffiksi shuningdek, -mand suffiksli yasama otlarga qo‘shilib kelishi mumkin.

“Angrezoⁿ ke hikmate amlī: niha:yat da:nishmanda:na heⁱ ki kisi: mulk par qabza karte heⁱⁿ to is tadri:j a^or a:histagi: se mulkva:loⁿ ko inqila:be huku:mat ki: khābar bhi: nahi:ⁿ hoti:”

“Inglizlar shunday donolik bilan siyosat yuritadiki, biron mamlakatni bosib olsa, bosib olganda ham asta-sekin, bildirmay bosib oladiki, yurt egalari hokimiyatni boy berganligini ham bilmay qoladi.”

Pardes mei jis qadar hamdarda:na aor dosta:na jazba:t-o ehsa:s:t aor ghamgusa:ri: ki: zaru:rat mehsu:s hoti: hei yaha:n isi: qadar in chi:zon ki: kami: hei(TU 494)

-----a:na suffiksi ham- prefiksli yasama otlarga xam kushilib, sifat yasaydi:

O‘zga yurtda hamdardlik va do‘stona tuyg‘ularu hissiyotlar va gamxurlikka kanchalar extiyoj sezilsa, bu yerda ular shuncha kam.-----

Bu suffiks o‘zbek tiliga ham o‘zlashib kirgan: oqilona, mardona, xolisona.

6. -na:k forscha suffiksi otlarga qo‘shilib, sifat yasaydi va narsaning yasash asosidan anglashilgan harakat-belgi, holat-xususiyatga ega ekanligini bildiradi: N+Sf.na:k

ta:ba:na:k – yorqin, porloq

ha^olna:k – dahshatli, qo‘rqinchli

alamna:k – qayg‘uli, dardga to‘la

“Cha:cha: Va:lu: ka: manjhla: beTa: jiski: baRi: baRi: khā^ofna:k muⁿcheⁿ thi:ⁿ qari:b a:ya: a^or bola: – “agar tum cha:ho yeh ghoRi: tum khū:d va:pas le ja: sakti: ho”.

“Valu amakining katta o‘g‘lining uzun-uzun qo‘rqinchli mo‘ylovi bor edi, yaqinroq kelib, dedi: “Istasang, manavi biyani sen o‘zing olib ketishing mumkin”.

“Unke ba:l safed heⁱⁿ, unke chehroⁿ par jhuriya:ⁿ heⁱⁿ, unki: umreⁿ ziya:da ho gai:ⁿ magar unke zehn na:ba:lighⁿ reh gaye heⁱⁿ yeh niha:yat khatar:na:k ho sakte heⁱⁿ”.

“Ularning sochi oqargan, yuzlariga ajin tushgan, yoshi ham anchaga borgan bo‘lsa-da, ammo aqli o‘smagan. Ular nihoyatda xavfli bo‘lishi mumkin”.

Bunday -na:k suffiksi bilan yasalgan sifatlar o‘zbek tiliga -li suffiksi bilan beriladi. Chunki -li suffiksi ham o‘zbek tilida biron holat yoki xususiyatga egalikni anglatadi.

Ammo bu suffiks she‘riy tilda qo‘llanilganini ko‘rish mumkin:

Kamol et kasbkim, olam uyidin

Sanga farz o‘l mag‘ay g‘amnok chiqmoq.

-na:k suffiksli sifatlarga -i: suffiksi qo‘shilib, mavhum otga ayplanadi:

“Ta:m ki: zindagi: meⁿ to va:qe us se a:ge kuch nahi:ⁿ the. Chava:li:s sa:l pehle jang ki: ha^olna:kiyoⁿ se jo jhata ba:ru:d ke dhu:yeⁿ meⁿ kha:ⁿsta: dushmanoⁿ ke lahu: meⁿ sharabor voh yaha:ⁿ pahu:ⁿch a:ya: tha:”

“Tomning hayotida haqiqatan bundan boshqa narsa yo‘q edi. Qirq to‘rt yil avval urushdagi dahshatlar bilan jang qildi, poroxning tutunidan yo‘talib-yo‘talib, dushman qoniga belanib, u shu yerga yetib kelgan edi.”

7. -i:la: hindiy suffiksi otga qo‘shilib sifat yasaydi. Bu sifat yasash asosi anglatgan narsa bilan bog‘liq belgi-xususiyatning mavjudligini bildiradi: N+Sf.i:la

reti:la: – qumli

rasi:la: – suvli, sersuv, shirali

dhajila: – xushbichim, kelishgan

“Yeh ma:mu:li: qism ki: cha:ra: gha:s hoti: heⁱ, us meⁿ zehri:le ki:Re hote hoⁿ, us se sakht qism ka: upha:ra ho ja:ta: heⁱ, - maveshi: ka: pet ghubba:re ki: tarah phu:l ja:ta: heⁱⁿ”.

“Bu oddiy o‘t bo‘lib, uning zaharli qurtlari bo‘ladi. Uni yegandan qorin yomon dam bo‘ladi. Mollarning qorni pufakday shishib ketadi”.

“Ba:z joshi:li: a^or ghusseili: bheⁿseⁿ ma:rneva:li: hoti: heⁱⁿ. Ajnabi: a:dmi: ko dekhkar bhaRak uThti: a^or hamla kar deti: heⁱⁿ”.

“Ba‘zi pishqirgan darg‘azab buqalar suzadigan bo‘ladi. Begonani ko‘rib, jahli chiqib ketadi va tashlanib qoladi”.

-i:la: suffiksli yasalmalar belgi-xususiyat, holat ma‘nolarini anglatgani bois o‘zbek tiliga ko‘proq -li suffiksi yordamida tarjima qilinadi. Ammo shuni ham aytish kerakki, -ila: suffiksi ba‘zan

anglashilgan narsaning odatdagidan ko'pligi, mo'lligi, ortiqligi ma'nolarini bildirgani uchun -ser prefiksi bilan ham tarjima qilinishi mumkin:

rasi:la: – suvli, sersuv

8. -elu: va -i:na suffikslari otga qo'shilib, biron belgi-xususiyatni bildiruvchi sifat yasaydi: N+Sf.elu: , N+Sf.i:na

gharelu: – xonaki, uyga oid

deri:na – qadimgi, eski

“Eisa: nahi:ⁿ tha: ki Isla:ma:ba:d meⁿ gharelu: mula:zim na milte hoⁿ albatta ami:roⁿ vazi:roⁿ a^or safi:roⁿ ki: vajah se unke moa:vize bahot baRh gaye the phir Ka:rmu: a^or Da:ru: ki: to ba:t hi: du:sri thi: voh ghula:m ibne ghula:m the”.

“Islomobodda uy xizmatkorlarini topish mahol deb bo'lmaydi. To'g'ri, boylar, vazirlar va elchilarning sharofati bilan ularning maoshi oshgan edi. Karmu va Daru – butunlay boshqa gap. Bu ikkovining yetti pushti xizmatkor o'tgan edi”.

“Uske kanval chehre par vohi: barsoⁿ pehleva:li: mula:imat a^or ta:zagi: thi:. Voh bahot masru:r nazar a:ti: thi:. Uski: Ta:j Mahal dekhne ki: deri:na kha:hish pu:ri: ho rahi: thi:”.

“Uning nilufar guliday chehrasi o'sha-o'sha necha yillar avvalgiday nafis va beg'ubor edi. U juda xush-xurram ko'rinardi. Toj Mahalni ko'rishdek eski orzusi amalga oshayotgan edi-da”.

9. -i:n, gi:n forscha suffikslari otga qo'shilib, sifat yasaydi. Bu suffiks ham yasash asosi – ot bildirgan narsa bilan bog'liq belgi-xususiyatni anglatadi:

zarri:n – tilla, tilla yugurtirilgan

rangi:n – rangli, bo'yalgan

sangi:n – 1) toshli 2) jiddiy, qiyin

ghamgi:n – qayg'uli, g'amgin

“Adabi: nuqtaye nazar se bhi: Sar Sayyad ke ka:moⁿ ki: kha:s ehmiyat heⁱ. Unhoⁿne rangi:n a^or bana:vaTi: adabi: zaba:n ke muqa:ble meⁿ si:dhi: sa:di: nasr ki: taraf tavajjoh ki:”.

“Badiiy jihatdan ham Sar Sayyad yozgan maqolalarning o'ziga xos o'rni bor. U bachkana va sun'iy adabiy uslubdan oddiy, sodda nasrni afzal ko'rди”.

“Magar du:sra: ta:r uska: marne ka: pahuⁿcha jis se unko e'sa: sakht sadma hua: ki jabtak Sar Sayyad vila:yat meⁿ rahe ghamgi:n a^or afsurdakkha:tir rahe.”

“Ammo uning (qizining) o'limi haqidagi ikkinchi telegramma Sar Sayyadga shunday qattiq zarba bo'ldiki, chet elda kunlarini juda g'amga botib, umidsizlik bilan o'tkazdi”.

10. -i:da forscha suffiksi otlarga qo'shilib, sifat yasaydi. Ular harakat yoki holat natijasida voqe bo'ladigan belgi-xususiyatni anglatadi: N+Sf.i:da

kha:bi:da – uxlayotgan, uyquli

ranji:da – xafa, g'amgin

shori:da – isyon qiladigan, bo'ysunmaydigan

“Sar Vilyam ne naveⁿ navambar ko us ka: java:b apne ha:th se likha: jiska tarjuma yeh heⁱ: “May diar Sayyad Ahmad! A:pki: sa:tvⁿ navambar ki: chiTTThi: ne mujhko is qadar he'ra:n a^or ranji:da ki:ya: ki meⁿ baya:n nahi:ⁿ kar sakta:”.

“Ser Vilyam 9 noyabrda unga (Sar Sayyadning xatiga) javobni o'z qo'li bilan yozdi. Uning tarjimasi bunday: “Azizim Sayyad Ahmad! Sizning 7 noyabrdagi xatingizdan shu qadar hayron va xafa bo'ldimki, bayon qilishga ojizman”.

“Yeh makka:r a^orat Akbari kha:num besamar, badmiza:j thi:. Lekin us ki chhoTi behn Asghari: kha:num bahot aqlmand, fahmi:da a^or nekmiza:j thi:.”

“Bu makkor ayol Akbariy xonim qo'lida hunari yo'q, badfe'l edi. Ammo uning singlisi Asg'ariy xonim juda oqila, farosatli va xushxulq edi.”

11. -va:r, var forscha suffiksi otlarga qo'shilib, sifat yasaydi. Bunday sifat yasash asosi anglatgan narsaga egalikni bildiradi: N+Sf.va:r (var)

silsilava:r – davomli, birin-ketin keladigan

saza:va:r – loyiq, sazovor

diydar – ziyrak, ko'zi o'tkir

“Tarah tarah se ji: behla:ne ki: koshish ki: ki zaru:r iska: ta:lluq pasha:var bhika:ranoⁿ ke kisi: giroh se hoga: a^or ab voh apne dere par pahuⁿchkar din bhar ki: kama:i: ka: hisa:b le raha: hoga:.”

“Har xil yo'l bilan ko'ngil ochishga urindi, uning o'z ishiga usta bo'lgan tilanchilarning biron guruhi bilan aloqasi bo'lsa kerak. Hozir o'zining chodirida o'tirib, kun bo'yi ishlab topilgan pulning hisobini qilayotgan bo'lsa kerak”.

Bunday sifatga -i: suffiksi qo'shilsa, u mavhum otga aylanadi:

“Ba:z as'ha:b yeh bhi: farma:te he^m ke Sayyad Ahmad Kha:n ne jo kuch qa^om ki: khe'rka:hi ke parde meⁿ ki:ya: usse mahz apni:

na:mva:ri, shohrat a^or gavarmant meⁿ eza:z ha:sil karne ka: maqsad tha:”.

“Ba’zi shaxslar Sayyad Ahmad Xonning asl maqsadi millatga xayrixohlik bahonasida nom chiqarish, shon-shuhrat va hukumat (a’zolari) orasida hurmat qozonishdir, deb aytardi”.

O’zbek tilida ham –vor suffiksi mavjud, ammo u juda kamunum hisoblanadi. Bu suffiks turli so’zlardan qiyoslash ma’nosidagi sifat yasaydi: devonavor, afsonavor, dorivor

12. Ko’p ilmiy adabiyotlarda –iya arabcha suffiksi otlardan mavhum ot yasaydi, deb yozilgan. Ammo badiiy adabiyotlarda –iya suffiksi nafaqat ot, balki sifat ham yasashi kuzatildi: N+Sf.iya

ela:niya – ochiq-oydin, baralla

isla:miya - islomiy

madhiya – madh etuvchi

“Bahot ziya:da unki: qadr karte the. Akhba:roⁿ meⁿ unki: nisbat madhiya a:rtikl chha:pte the. Apni: qa^omi: majlisoⁿ ki: taraf se unke sa:mne edres pesh karte the”.

“Ko’pchilik uni hurmat qilardi. Gazetalarda uning ta’rifini keltirib maqola chop etilardi. Mahalliy yig’inlarda unga tabrik so’zlarini aytishardi”.

13. Forscha –ka:r, –ga:r, gar suffikslari ham otdan sifat yasaydi va yasash asosidan anglashilgan narsa, holat-xususiyatga egalikni, o’sha bilan band bo’lish ma’nolarini bildiradi: N+Sf.kar(ga:r, gar)

va:qifka:r – voqif bo’lgan, boxabar; tanish

talabga:r – 1) talab qiluvchi 2) istovchi, izlovchi

ka:rgar – 1) yaratuvchi 2) amaldagi 3) foydali

“Ek roz us ne socha: ki kisi: tajrubaka:r Da:kTar ya: ma:hire nafsiya:t se ruju: kare kiya: pata sach much us ke su:nghe ne ke a:za: meⁿ koyi: khala:l va:qa ho gaya: ho”.

“Biron tajribali shifokor yo ruhshunosga ko’rinaymi, deb ham o’yladi. Kim bilsin, rostanam hid bilish a’zosida biron illat paydo bo’ldimikin?”

Bunday –ka:r, –ga:r, –gar suffiksli sifatlariga –i: suffiksi qo’shilsa, ular mavhum otga aylanadi:

“Iffat -o- parhezga:ri:, mehnat a^or kha:ne-pi:ne meⁿ muna:sib ehtiya:t. In sab ba:toⁿ ne un ke mija:z ko a^or bhi: ziya:da etida:l par rakha:”.

“Sabr-qanoat, nafsnı tiyish, mehnat, yeyish-ichishda ehtiyotkorlik – bularning bari uning fe’l-atvorini yanada mo’tadil qilib bordı”.

O’zbek tilida bunday suffiks bilan yasalgan sifatlar mavjud: isyonkor, da’vogar, xaloskor.

14. Arabcha –a:ni: suffiksi otga qo’shilib, sifat yasaydi va yasash asosi anglatgan narsa, holat kabilarga xoslanganlik, tegishli ekanlikni bildiradi: N+Sf.a:ni:

ru:ha:ni: – ruhiy, ma’naviy

jisma:ni: – badanga oid, jismoniy

“Sandu:q bahot bojhal tha:. Us ke vazn ke ni:che uTha:neva:le ki: pi:Th chatakh rahi: thi:. Ta:ngeⁿ dohri: hoti: ja: rahi: thi:ⁿ, magar ina:m ki: tavaqqa ne is jisma:ni: mashaqqat ka: ehsa:s ni:m murda kar diya: tha:”.

“Sandiq juda og’ir edi. Uni ko’tarib borayotganning yelkasi yorilay deyayotgan edi, oyoqlari chalishib borayotgan edi, ammo mukofot olish umidi hozirgi jismoniy azob hissidan ustun edi”.

“Dya:sla:y khi:nchkar us ne mashal jala:yi:. Mashal ke shole ne hava: meⁿ ek nu:ra:ni: laki:r si: khi:nchi:”.

“Gugurtıni chaqib, mash’alni yoqdi. Uning shu’lasidan havoga yaltiroq bir chiziq tarqaldi.”

Savol va topshiriqlar:

1. Urducha – o’zbekcha lug’atdan mavhum otlarni topib ko’chiring
2. Mavhum otlar ishtirokida 5 ta gap tuzish

8 - mavzu:

PREFIKSLAR YORDAMIDA SIFATLARNING YASALISHI

Darsning o’quv maqsadi: talabalarda sifatning prefikslar vositasida yasalishi haqida ko’nikma hosil qilish

Reja:

1. Otlarga qo’shilib, yasash asosi bilan bog’liq ravishda belgi, xususiyat kabi xilma-xil ma’nolarni bildiruvchi sifat yasovchi prefikslar
2. Mavhum otlardan sifat yasovchi prefikslar
3. Yasash asosi bildirgan biron-bir belgi, xususiyatning mavjud emasligini, unga zid ekanligini anglatuvchi sifat yasovchi prefikslar
4. Shaxsning yasash asosi orqali ifodalangan narsa, voqea-hodisalarga teng aloqadorligi ma’nolarini bildiruvchi sifat yasovchi prefikslar

Tayanch tushuncha va iboralar: yasash asosi, sermahsul prefiks, affiks, prefiks,

MAVZU BAYONI:

1.be- forscha prefiksi eng sermahsul prefikslardan hisoblanadi.

be- prefiksi otlarga qo'shilib, yasash asosi bilan bog'liq ravishda belgi, xususiyat kabi xilma-xil ma'nolarni bildiruvchi sifat yasaydi:
P₁be+N

a) yasash asosidan yanglashilgan narsaga ega emaslikni, uning yo'qligi, mavjud emasligini bildiradi:

bea^ola:d - befarzand, bolasiz

bepar - qanotsiz

bemaza - bemaza; qizig'i yo'q

"Yeh Ka:lu: heⁱ, - ma:mu:ⁿja:ⁿ ne java:b diya:. Sa:nsiyonⁿ ka: laRka: heⁱ. Becha:ra beaql a^or bezaba:n heⁱ." [M, MA, 197]

"Bu - Kalu, - tog'am dedi, - Sansiylar (ko'chmanchi qabila)ning o'g'li. Bechora aqlsiz, ham tili yo'q."

"BaRe logoⁿ ki: qabreⁿ pukhta: a^or baRi: heⁱⁿ, ghari:b a^or na:da:r logoⁿ ki: qabreⁿ kachchi: a^or benisha: heⁱⁿ. Zaminda:roⁿ a^or cha^odhri:yoⁿ ki: qabreⁿ un ki: haveli:yoⁿ ki: tarah achchi: a^or buland jaghoⁿ par heⁱⁿ." [M, MA, 96]

"Katta odamlarning qabri pishiq g'ishtdan, katta, kambag'al, nochorlarniki esa loydan bo'lib, biron-bir belgisiz. Yer egalari va qishloq oqsoqollarining qabri hovlisi kabi chiroyli va baland joylarda."

O'zbek tilida ham be- affiksi mavjud bo'lib, uch xil berilishi mumkin:

a) be- vositasida:

besharm - besharm

besamar - besamar

beshak - beshak

b) no- suffiksi bilan:

becheⁿ - notinch

beinsa:f - noinsof

v) -siz suffiksi orqali:

bequsu:r - aybsiz

berahm - shafqatsiz

beshuma:r - son-sanoqsiz

be- prefiksli sifatarga i: suffiksi qo'shilsa, u mavhum otga aylanadi:

beyaqi:ni: - noaniqlik, mujmallik

becheⁿi: - bezovtalik, notinchlik

bekha:bi: - bedorlik, uyqusizlik

"Kiya: yeh behtar nahi:ⁿ ki ham imda:di: jaha:z ya: malak-ulma^ot ke a:ne tak apni: jaddo jehad ja:ri: rakheⁿ. U:parva:la: na:keⁿ nahi:ⁿ ragaRva: sakega: a^or tab tak befikri: ki: ni:nd to so nahi:ⁿ sakega:." [M, MA, 43]

"Biron qutqaruvchi kema yoki o'lim farishtasi yetib kelmaguncha kurashni davom ettirganimiz ma'qul emasmi? U bizni yalintirib qo'ymaydi, o'sha paytgacha xotirjam uxlay olmaydi ham."

b) be- prefiksi qo'shma otlarga ham qo'shilib keladi:

bekamo ka:st - benuqson, bekamu ko'st

beparo ba:l - qanoti qayrilgan, bechora, notavon

besaro pa: - bema'ni, boshi-keⁿti yo'q

"Voh kai roz se us purisra:r a^or bea:bo-giya:h jazi:re meⁿ bhaTak rahe heⁱⁿ, jis ka: samundar machhli:yoⁿ se a^or sa:hil darakhtoⁿ a^or parindoⁿ se kha:li: heⁱ." [M, MA, 171]

"Ular bir necha kundan beri shu sirli va suvsiz, bir giyoh unmaganda orolda tentirab yuribdilar. Uning suvlarida baliq suzmaydi, sohillari dov-daraxtsiz va qushsiz."

v) be- prefiksi mavhum otlardan ravish ham yasaydi. O'zbek tiliga -may shaklida tarjima qilinadi:

betaraddud - o'ylab o'tirmay, ikkilanmay

beba:k - tap tortmay

betakalluf - tortinmay, bemalol

-----Donon vaqt kha:na: paka:te phir bhi: kai: ba:r bevaqt a:neva:le mehma:non ke lie roti: aor sa:lan ya: na:n kaba:b ba:za:r se manga:na: parte (DA.75)

Ikki maxal ovkat kilinardi.Shunday bulsa-da, bemavrid keluvchi mexmonlar uchun ba'zan non , zirvak yoki kabobni bozordan keltirishga tugri kelardi.-----

g) yasash asosi anglatgan narsa, holatning kamligi, yetarli emasligini bildiradi:

bebas - ojiz, nochor, notavon

beasar - ta'sirsiz, natijasiz

besura: - ohangsiz, beo'xshov

d) yasash asosidan anglashilgan holat, xususiyatlarning ko'pligi, ortiqqligi, shu xususiyat uning doimiy sifatiga aylanganligi ma'nolarini bildiradi:

betha:h - tubsiz, juda chuqur

beintiha: - bepoyon, cheksiz, bitmas-tuganmas

beshuma:r - son-sanoqsiz

"Us ke husno jama:l ki: dhu:m ba:rah-ba:rah kos tak phe'l gayi: heⁱ, us ke beshu:ma:r a:shiq a^or parista:r pe'da: ho gae, baRi: du:r-du:r se u:"che ghara:no" ke rishte a: rahe the." [M, MA, 44]

"Uning chiroyining ovozi necha ellarga tarqalgan edi. Uning son-sanoqsiz oshiqqlari, shaydolari bor edi. Juda uzoqlardan tagli-taxtli xonadonlardan sovchilar kelayotgan edi."

ye) shaxs, narsaning salbiy xususiyatini, salbiy holatini bildiradi:

behimmat- jur'atsiz, qo'rqoq

bena:mu:s - uyatsiz, behayo

bea:bru: - bebro', badnom

"Logoⁿ ko ba:var karaya: ja:ta: ki mu:si:qi: sufli: jazba:t ko bhaRka:ti a^or he'va:ni: jazboⁿ ko ubha:rti: heⁱ, fard a^or ma:shre ko ka:hil a^or beamal bana:ne ki: ra:h hamva:r karti: heⁱ." [M, MA, 233]

"Musiqa jirkanch tuyg'ularni o't oldiradi va hayvoniy hislarni qo'zg'otadi, shaxs va jamiyatni tanbal va sust qilib qo'yish uchun yo'l ochadi, deb odamlarni ishontirishar edi."

be- prefiksi, shuningdek, o'timli fe'ldan yasalgan tugal sifatdoshlarga ham qo'shilib keladi va bo'lishsiz ish-harakatni anglatadi:

"Us ke koha:n meⁿ charbi: hoti: heⁱ a^or peT meⁿ pa:ni: ka: ka:fi: zakhi:ra, is lie kayi: din tak be kha:e-pi:e reh sakta: heⁱ." [BA, 59]

"U(tuya)ning o'rkachida yog' va qornida anchagina suv bo'ladi, shuning uchun bir necha kungacha yemay-ichmay yashay oladi."

be- prefiksi bilan yasalgan otlar substantivatsiyaga uchrashi mumkin:

"Kutte ko voh ita:atguza:r a^or vafa:da:r samajhte heⁱⁿ. Us begheⁱrat ne ek tukRe roTi: ke lie apni: a:za:di: a^or shara:fat insa:n ke ha:th bech di: heⁱ." [Rh. U. P., 18]

"Itni ular (odamlar) itoatgo'y va vafodor deb hisoblashadi. Bu hamiyatsiz bir burda non uchun o'z erkinligi va or-nomusini insonga sotdi-qo'ydi."

"Eh hazrat ashraful-makhluga:t sirf dozakh shikam ke bharne ya: apni: hifa:zat ke lie dusroⁿ ko nahi:ⁿ balki mehaz tafri:h ke lie haza:rha: beguna:hoⁿ ka: khu:n kar Da:lta: heⁱ a^or is ka: na:m us ne shika:r rakha: heⁱ." [Rh. U. P., 17]

"Bu inson hazratlari qornini to'ydirish yoki o'z muhofazasi uchungina boshqalarni (hayvonlarni) o'ldirmaydi, balki faqat ko'ngilxushlik uchun minglab begunohlarni o'ldiradi va buni ov deb ataydi."

2. pur- forsha prefiksi ham asosan mavhum otlardan sifat yasaydi: P_fpur+N. Bu prefiks yasash asosidan anglashilgan narsaning odatdagidan ko'pligi, mo'lligi, ortiqqligi ma'nolarini bildiradi.

purdard - g'amgin, yurakni ezadigan

purjosh - qizg'in, jo'shqin

purmagh^z - ma'noli, jiddiy

Bu prefiks asosan o'zbek tiliga **-li** suffiksi bilan beriladi:

puretiba:r - ishonchli, e'tiborli

purasra:r - sirli, jumboqli

purshikva - dabdabali, hashamatli.

Juda kam hollarda «-ga to'la» shaklida beriladi:

purummid- umidga to'la

purnu:r - nurga to'la, yorug'

pura:shu:b - tashvishga to'la, tashvishli

"Eh niha:yat ma:muli: duka:noⁿ ki: ke'fiyat heⁱ a^or baRi:-baRi: duka:neⁿ jin ko hoTal kaha: ja: sakta: heⁱ niha:yat purta^kalluf a^or pursha:n heⁱⁿ." (OSPH., 23)

"Bu eng oddiy do'konlardagi ahvol, ammo hotel deb ataladigan katta-katta do'konlar juda shukuhli va hashamatli edi."

"Un ke ha:ⁿ aksar ilmi:, tari:khi: a^or soshal har qism ke masa:yl par pur^lutf sohba:t hoti: thi:ⁿ." (OSPH., 102)

"Ularnikida ko'pincha ilm, tarix, ijtimoiy va boshqa mavzularda qizg'in suhbatlar bo'lardi."

3. Sifat yasovchi forsha prefikslar orasida eng sermahsuli ba- prefiksdir. ba:- prefiksi asosan mavhum otlardan sifat yasaydi: P_fba:+N

ba:ha^osla - 1)g'ayratli, serharakat; 2) irodali, matonatli

ba:tami:z - esli-hushli, sermulohaza, odobli

ba:sala:hiyat - qobiliyatli, salohiyatli

“Us ne a:s pa:s khaRi: a^oratoⁿ ko khu:shi: a^or fakhr se bata:ya: “Voh safed shimleva:la: ... ba:da:mi: ghoRi: par sava:r ba:ra:ti: mere ga^on ka: heⁱ. Us ka: na:m Mulknava:z heⁱ. Sadqe ja:uⁿ sa:ri: bara:t meⁿ sab se ziya:da ba:vaqa:r lag raha: heⁱ.”

“U yon-veridagi ayollarga suyunib faxr bilan dedi: «Ho‘ anavi malla otda o‘tirgan oq sallali bor-ku, o‘shaning ismi Mulknavozi, men bilan bir qishloqdan. Sadaqasi ketay, kuyov navkarlar orasida biram savlatli ko‘rinyapti”.

Ba‘zi hollarda u konkret otlarga ham qo‘shilishi mumkin:

ba:resh - soqolli, mo‘ysafid

ba:tasvi:r - suratli, suratlar bilan bezatilgan

ba:- prefiksi bilan yasalgan sifatlar biron-bir belgi yoki sifatning mavjudligi, borligini anglatadi:

ba:barkat - barakali, foydali

ba:ikhtiya:r - haq-huquqli, so‘zi o‘tadigan

ba:asar - ta‘sirchan, nufuzli

-----Mei samajhta: hun ki jab qa:riyn aor naqqa:d hazra:t likhneva:le se ba:ma:ni: purta:sir aor zindagi: se juri: hu:i: takhli:qa:t ka: taqa:za aor tavaqqa karte hein to likhneva:le ko bhi: haq pahunchna: hei ki voh un se sava:l kare...(DA.12)

Tushunishimcha, ukuvchilar va tankidchi janoblar yozuvchidan mazmundor, ta‘sirchan va xayotiy asarlar talab qilishganda yozuvchi xam ularga savol berishga mustaxak buladiki,-----

a) aksari hollarda ba: prefiksi o‘zbek tiliga **-li** suffiksi bilan beriladi:

ba:vusu:q - ishonchli, e‘tiborli

ba:i:ma:n - imonli, insofli

b) ba‘zan bu prefiks -dor affiksoidi bilan beriladi:

ba:vafa: - vafodor, sodiq

ba:ma:ni: - mazmundor, ma‘nodor, ma‘noli

v) ba‘zi hollarda -bo prefiksi bilan beriladi:

ba:khobar - boxabar

ba:ikhla:q - boadab

ba:- prefiksi kam hollarda otlarga qo‘shilib, ravish ham yasaydi:

ba:a:va:z - baralla, baland ovozda

ba:a:sa:ni: - osonlikcha, yengil

ba:dil - yurakdan, dildan

4. a- hindcha prefiksi yasash asosi bildirgan biron-bir belgi, xususiyatning mavjud emasligini, unga zid ekanligini anglatuvchi sifat yasaydi:

a- prefiksi fe‘l negiziga qo‘shiladi: P_f a: + V_{rt}:

aTu:T - bo‘linmas (ajralmas) qism; buzilmas

amiT - o‘lmas, abadiy, yo‘qolmaydigan

aji:t - 1) yengilmaydigan, 2) kuchli, yengilmas

5. an- hindcha prefiksi yasash asosi anglatgan belgi-xususiyatga zidlikni bildiradi;

a) an- prefiksi fe‘l o‘zagiga qo‘shiladi va sifat yasaydi: P_{an} + V_{rt}

anja:n - notanish, noma‘lum

anthak - tinchimaydigan, tolmas

angaRh - ishlov berilmagan, xom, chala

b) an- prefiksi tugal sifatdoshlarga qo‘shilib, sifat yasaydi: P_{an} +

P_{Part}

andekha: - 1) ko‘z ko‘rmagan 2) mislsiz

ansuna: - quloq eshitmagan, noma‘lum

ankaha: - aytilmagan (gap)

“Sha:yad voh ab tak use a:zma: rahi: thi: a:j voh us ba:t ka: bhi: zikr kar de jo use andar hi: andar lahu: luha:ⁿ karti: rehti: thi:. Magar voh baza:hir haⁿsti: muskura:ti: dikha:i: deti: thi:. Koi: anja:na: sa: andesha use khu:shi: ke lamhoⁿ meⁿ bhi: uda:s rakhta: tha:”. (M, MA, 52)

“Hoynahoy, u hozir ham uni sinayotgan edi, bugun u yurak-bag‘rini qon qilayotgan o‘sha gapni esiga solsa kerak. Bir qaraganda sho‘x-shodon ko‘rinsa-da, noma‘lum bir o‘y uni baxtli onlarda ham g‘amga botirardi”.

“Kabhi: kabhi: khud voh apne jism ki: anpaRhi: kita:b kholkar tasvi:reⁿ dekhne beⁱTh ja:ti: phir me‘le hone ke Dar se band karke ek taraf rakh deti.” [M, MA, 31]

“Ba‘zan-ba‘zan uning o‘zi jismidagi o‘qilmagan kitobni ochib, (undagi) tasvirlarni tamosho qilishini boshlar, ammo yana uning (kitobning) kir bo‘lib qolishidan qo‘rqib, bir tomonga surib qo‘yardi.”

v) otga qo‘shilib, sifat yasaydi va umuman narsaga xos belgi-xususiyatni bildiradi: P_{an} + N

anmol - bebaho, qimmatbaho

an- prefiksli sifatlar o'zbek tiliga ko'proq o'tgan zamon bo'lishsiz sifat-dosh shaklida tarjima qilinadi.

Savol va topshiriqlar:

1. bila:- arabcha prefiksi qatnashgan so'zlardan mustaqil tarzda gaplar tuzing
2. Muzakkar jinsidagi a: ga tugagan otlarda a: tushib qolib -iya: suffiksi qo'shilishiga mustaqil misollar keltiring

9 - mavzu:

PREFIKSLAR YORDAMIDA SIFATLARNING YASALISHI

Darsning o'quv maqsadi: talabalarda sifat-larning prefikslar vositasida yasalishi haqida ko'nikma hosil qilish

Reja:

1. Otlarga qo'shib, yasash asosi bilan bog'liq ravishda belgi, xususiyat kabi xilma-xil ma'nolarni bildiruvchi sifat yasovchi prefikslar
2. Mavhum otlardan sifat yasovchi prefikslar
3. Yasash asosi bildirgan biron-bir belgi, xususiyatning mavjud emasligini, unga zid ekanligini anglatuvchi sifat yasovchi prefikslar
4. Shaxsning yasash asosi orqali ifodalangan narsa, voqea-hodisalarga teng aloqadorligi ma'nolarini bildiruvchi sifat yasovchi prefikslar

Tayanch tushuncha va iboralar: yasash asosi, sermahsul prefiks, affiks, prefiks,

MAVZU BAYONI:

1. ham- forscha prefiksi otlarga qo'shiladi. Bunda u shaxsning yasash asosi orqali ifodalangan narsa, voqea-hodisalarga teng aloqadorligi ma'nolarini bildiruvchi sifat yasaydi: P_fham + N

hama:hang – uyg'un, muvofiq, monand

hampalla – teng, barobar

hamjins – bir turdagi, bir xil

“Ma:lik huju:mko pi:che haTa:ta: a:ge a:ya:, ta:zi:m ke ba:d bola. A:li:ja:h! Kiya: mujhe is ke hamvazn sona: ata: ho sakta: he¹?” [M, MA, 39]

“(Qulning) egasi to'dani yorib o'tib, oldinga yurdi, ta'zim qilgach, dedi: “Hazratim, menga uning vazniga teng tillo beriladimi?”

“Mere hamumr laRke use dekhkar Dar ja:te ha:la:ⁿki voh kisi: ko kuch nahi:ⁿ kehta:. Me^m use sa:th lekar ghu:mta: rehta:. Ham ek du:sre ki: zaba:n hi: nahi:ⁿ isha:re bhi: samajhte the”. [M, MA, 118]

“Menga tengdosh bolalar uni ko'rib, qo'rqib ketishardi. Holbuki, u hech kimga hech narsa demasdi. Uni birga olib aylanib yurardim. Biz bir-birimizning gapimizni emas, hatto imo-ishoramizni ham tushuna olardik”.

Bu sifatlarga -i: suffiksi qo'shilsa, u mavhum otga aylanadi:

hama:hangi – uyg'unlik, muvofiqlik

hamkhaya:li – yakdillik, birdamlik

hamdardi: – hamdardlik

“Bheⁿs ki: da:yiⁿ pasliyoⁿ ke pa:s ek zakhm tha:, jis meⁿ pi:p paR gayi: thi: a^r us par makhiya:ⁿ be¹Thti: thi:ⁿ. Us ka: hamdardi: ka: jazba bhaRakne laga:”[M, MA, 206]

“Buqaning o'ng qovurg'asiga yaqin joydagi yara yiring boylab ketgan edi, unga pashshalar qo'nib turardi. Unda achinish hissi uyg'ondi.”

ham- prefiksi ko'proq otdan ot yasaydi: P_fham + N

hamsa:ya – qo'shni

hamsabaq – sinfdosh

hamka:r – kasbdosh

“Qanstantaniya meⁿ agarchi ti:n mahi:ne tak raha: magar zaba:n ki: ajnabiyat ki: vajah se turkoⁿ se mera: mel-jol bahot kam tha:. Mere hamsohbat a^r mere ahba:b jitne the voh sab Sha:m ke arab the.” [Kh, U,P, 51]

“Konstantinopolda garchand men uch oy yashagan bo'lsam-da, tilni bilmasligim sabab turklar bilan juda kam muloqotda bo'ldim. Mening og'aynilarim, do'stlarim qancha bo'lsa, bari suriyalik arablar edi.”

